Tasviriy san'at

A. Egamov

KOMPOZITSIYA ASOSLARI

5-9 SINFLAR

72
701.4
E 26

Tasviriy san'at

A. Egamov

KOMPOZITSIYA ASOSLARI

5-9
sinflar

O'ZBEKISTON BADIIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI, RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

K. Behzod nomidagi
Milliy Rassomlik
va Dizayn Instituti
KUTUBXONASI
No 18889

«SAN'AT» JURNALI NASHRIYOTI
TOSHKENT - 2005

Muallif:
Abloberdi Egamov

Mas'ul muharrir:
akademik, professor
Tursunali Qo'ziyev

Muharrirlar:
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Hamdam Ismoilov
Tolib Qanoatov

Taqrizchilar:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti professori, akademik
Sa'dulla Abdullayev

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi
Asqarali Sulaymonov

Respublika ta'lim markazi bosh metodisti
Mahsuda Zokirova

A.Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyi oliy toifadagi o'qituvchisi
Abdurahmon Nurqobilov

Musavvir: **Abloberdi Egamov**
Kompyuterda sahifalovchi:
Sherzod Salixov
Patxitddin Shobaratov

Kirish

Kompozitsiya o'quv fanining maqsad va vazifalari

Hozirga kelib O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olishlari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ta'lim islohoti ilmiy tadqiqotlar asosida hayotga to'liq tatbiq etilmoqda. So'zsiz, O'zbekiston ham ta'lim sohasida dunyoviy umumrivojlanish yo'lidan borar ekan, shu o'rinda san'atlarda kompozitsiya fanining fazilatlari o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini aytib o'tmoqchimiz.

Ushbu tasviriy san'at darsligi kompozitsiya fani sirlarini o'rganishda o'quvchilar uchun asosiy qo'llanma bo'lib, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining o'quv muassasalarida dastlabki sinovdan o'tgan o'quv reja va dasturlari asosida yaratilgan.

Kompozitsiya o'quv fani ijodiy faoliyatning yuqori cho'qqilaridan biri bo'lib, san'atkorning ichki dunyosi, borliqni, uning go'zalligini kompozitsiya qonuniyatlari orqali idrok qila olish, tasavvur etish va albatta umuminsoniy tan olingan haqqoniy san'at asarlarini asrab-avaylash va qadrlashni o'rgatadi.

Bu fanning asosiy maqsad va vazifalari o'quvchilarda kompozitsiyalar orqali badiiy madaniyat, badiiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o'z ijodiy faoliyatini o'stirishdan iboratdir.

Kompozitsiya fani o'z oldiga qator vazifalarni qo'yadi va teran tafakkur etuvchi rassomlarni tayyorlashda tom ma'nodagi muhim bosqichlardan biri bo'lib shakllanadi.

Aynan shu bosqichda yuzada xajmli tasvir yaratish tashkiliy jihatlari haqida, xajm va atrof-muhit kabi muhim ijodiy vazifalar yechimlari, badiiy qobiliyat, did va fikrlash faoliyatini o'stirish to'g'risida gap boradi.

O'quvchida kompozitsiya asarlarini o'qiy olish, u haqda fikrlash, ko'rish va his etish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Kompozitsiyada bir necha bilimlarni qamrab olgan, jumladan perspektiva qonuniyatlarini o'rganish, fazoviy tasavvurni o'stirish kabi zaruriy fanlar, shuningdek kompozitsiya turlari, janrlar, oqimlar, atama va iboralar haqida tushunchalar berib boriladi.

Kompozitsiya fani barcha rangtasvir va chizmatasvirda hamda umumta'lim fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'qitiladi.

Mazkur darslik-kompozitsiya fanida ritmik ifodaviylik, asosiy va ikkilamchi bog'liqlik, o'xshashlik va muayyan qirralar, hajmiy, atrof-muhitda sodir bo'layotgan jilolar, jo'shqin hayotning o'zaro munosabatlarning mutanosibligi va nomutanosibliklari haqida tushunchalar beradi.

Darslikda hayotning uzluksiz, jo'shqin ifodaviy, munosabat, maromlarning uzviy aloqadorligi, rang garmoniyasi haqida batafsil ma'lumotlar hamda kompozitsiya fani asar yuzasidagi shakllar munosabatlari, rang kompozitsiyasi, psixologik kompozitsiyalar, kayfiyat va muxitning bog'liqligi, ma'naviy bog'liqligi haqidagi tushunchalarni mujassam etilgan.

Bu darslik tasviriy san'at yo'nalishidagi maxsus litsey, maktab, tasviriy san'at to'garaklari va san'atsevar intellektual insonlar uchun mo'ljallangan.

Muallif
A.Egamov

Kompozitsiyaning makoniy imkoniyat talablari

Rassom imkoniyatlari benihoya cheksiz. U gul yaproqlarining nozik titrog'i va cheksiz koinotni, kundalik turmush tashvishlari va jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalarni tasvirlay olish imkoniga ega. Unda yuzlab kvadrat metr keladigan tasvirlar, yirik toshlardan haykal yasay olish malakalari mavjud. U bug'doy donasi sathiga portret chizishi va jimjiloqdek keladigan haykalcha yasay olishi mumkin. Ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun rassom o'nlab ashyolardan foydalangan holda, yangi imkoniyatlarni ochish uchun tirishadi. Qalam va moybo'yoqlar, loy va oltin, qog'oz va oyna, mato va po'lat - bularning barchasi ijodkorning qo'lida san'at asariga aylanadi.

Ammo rassom qanchalik noyoblik darajasida, qanchalik mahorat bilan chizib, toshga ishlov bermasin va ashyolar shakli hamda rangini qanchalik nozik his etmasin, u kompozitsiya mahoratini egallamagan bo'lsa, haqqoniy san'at asarini yarata olmaydi.

Kompozitsiyani ijoddan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom asar yaratishga kirishuvi bilanoq u kompozitsiya bilan shug'ullanadi. Naturadan eng sodda natyurmort ishlaganda ham kompozitsiyaga e'tibor beradi. Katta hajmdagi tasvir yoki haykal ustida ishlayotganda, odatda kompozitsiya ustida ishlamoqda deyiladi.

Kompozitsiya so'zi lotincha «compozito» so'zidan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil ramziy qism ifodalarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi.

Badiiy ijod tajribasi shakllanish mobaynida, kompozitsiyaning asosiy izchil, mukammal qonun qoidalari va vositalari, hamda ishlab chiqishga sharoit yaratib berdi. Shu jumladan, olimlar tomonidan har qanday san'at asarini his qilishda zarur bo'ladigan go'zallikning prinsiplari ishlab chiqilgan. Ular odatda, san'at nazariyasida, badiiy va kompozitsion ifoda vositalari, xususan, nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastiklik, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik,

1.B.Jalolov. «Raqsning tug'ilishi».

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi

Tasviriy San'at

a. Asarning chap qismi.

b. Asarning markaziy qismi.

v. Asarning o'ng qismi.

arxitektonika, uyg'unliklar deb yuritiladi.

Kompozitsiyaning asosiy mazmun hususiyatlaridan biri mantiqiylik, shakl va qismlarning o'zaro mutanosibligidadir.

Rassom o'z asarining qay bir badiiy, ifodaviy, kompozitsion vosita asosida yaratilayotganligiga alohida e'tibor bermog'i zarur.

Kompozitsiya tasviriy san'atning asosiy shartlaridan biri bo'lib, yaratilayotgan asarning asosiy fikr va g'oyasi, maqsadi hamda mazmunini tushunarli, yorqin ifodalash bilan uzviy bog'liqligi e'tirof etiladi. Shuningdek turli shakllar, siymolar, ko'rinishlardan badiiy asar obrazlarini yaratish ijodkor oldiga asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Yaratilgan asarlar bizning yodimizda, tushunchamizda uzoq saqlanib qolishi sababalaridan biri, kompozitsiya yechimida tanlangan mavzuning aniq, to'liq, mazmunan mukammal, tushunarli ifoda etilganligidadir.

Bunga Bahodir Jalolovning sevimli raqqosa va «Bahor» ansambli tashkilotchisi Mukarrama Turg'unboyeva ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan «Raqsning tug'ilishi» nomli mahobatli rangtasvir asari yorqin misol bo'la oladi.

Gorizontal holda joylashgan ko'p qomatli asar kompozitsiyasi markaz simmetrik ko'rinishda yechim topgan. Asar markazida raqqosa obrazi bo'y barobar tasvirlangan. Asar fonida o'zbek milliy raqslaridan biri bo'lgan «Tanovar» yengil harakatlar yordamida mahorat bilan ijro etilyapti.

Asar fonida, qomatning orqa tomonida, yorug'lik taralayotgan doira shaklidagi tasvir obrazga yanada ko'rkamlik va bayramona kayfiyat bahsh etgan. Kompozitsiyaning o'ng va chap qismlarida esa parvoz etayotgan qizlar - «Bahor» ansambli raqqosalari portret obrazlari o'rin olgan.

Rassom ijodida e'tiborni o'ziga jalb etadigan asosiy hislat - zamondosh obrazi tasvirida ichki yaxlitlik va chuqur mazmundorlikka erishganligidadir.

Boburnoma asari rassomlari murakkab voqealarni to'liq ifoda etish uchun dastlab ularni uch-to'rt epizodga ajratadilar. Har bir epizod bo'yicha mustaqil kompozitsiya yaratiladi. Ular kitob sahifasining pastidan yuqori tomon joylashtiriladi. Kompozitsiyalar tarkibiga

2.

kiradigan manzaralar, arxitektura qomatlari, tog'lar, adirlar, daryolar, o'simliklar yoki matn parchalari yordamida bir-biridan ajratib beriladi. Ayni vaqtda har bir kompozitsiya o'z mustaqilligini saqlagani holda bir-biri bilan mantiqiy bog'lanib, asar mazmunini ochib beruvchi bir butun polotnoni tashkil qiladi.

Masalan Boburning singlisi Xonzodabegim bilan uchrashuvi (2-rasm) to'rt planli qilib bajarilgan.

Birinchi planda Bobur va uning kuzatuvchisi Mahammad Ko'kaldosh otini xizmatkor ushlab turgani; ikkinchisida Bobur va Muhammad Ko'kaldoshning Xonzodabegim bilan qurayotgan suhbatlari; uchinchisida yuqoridan o'ng tomonda saroy ko'rinishi; to'rtinchi planda esa Hindiston tabiat manzarasi berilgan. Kompozitsiya muvozanati to'liqligicha ritm qonuniyati bilan isbotlangandir. Inson qomati, hayvonlar, o'simliklar, turli manzaralar tasvirini qog'oz sathiga joylashtirishda ritmga qat'iy rioya qilish, rasm ritmi, imo-ishora, harakatlarni jonli bera bilish, bo'yoqlardagi ichki monandlik, o'sha davr rassomlariga xos bo'lgan go'zallikni seza bilish fazilatlari ifoda ettirilgan. Boburnoma asarini asl durdonalardan biriga aylantirgan.

V.I.Surikovning «Boyar ayol Morozova» asari tarixiy janrda yaratilgan bo'lib, ko'p qomatli murakkab kompozitsion yechimda bajarilgan (3-rasm).

Asar markazidan diagonal yechim taassurotini qoldiradigan simmetriya tarzidagi xayrixon va tomoshabinlar ruhiy holati va haqiqiy qish manzarasi tasvirlangan. Kartina markazida tizzalari bukilib o'tirgan ayol qomatini deyarli shunday holatda turgan guvohlar qomatlarining harakati to'ldirib turadi. Yetakchi timsollardan go'yoki to'lqinlar taralmoqda, ular boshqalarga urilib chana harakatidan yanada jo'shmoqda. Asar plastik ritmning klassik namunasiga misol bo'la oladi.

R.Ahmedovning «Qo'shiq», O'.Tansiqboyevning «Qayroqqum GESi tongi» va yuqoridagi asarlarning biror bir ko'rinishni, masalan, matoning o'lchovini, soyalarning to'q va ochligini, qomatlar soni, ufq chizig'ini, o'zaro mutanosiblikni va umumiy yaxlitlikni o'zgartirishga harakat qilib ko'raylik.

Bu holda, albatta biz barcha mutanosibliklarni buzilishiga guvoh bo'lamiz.

Bu asarlarda kompozitsiya qurilmalarining qonun-qoidalar asosida nihoyasiga etkazib tugallanganligi bu kabi asarlarga o'zgartirishlar kiritish mumkin emasligini isbotlaydi.

«Kompozitsiya» so'zi tasviriy san'at yo'nalishlarida termin sifatida

2. «Boburnoma». «Boburning opasi Xonzodabegim bilan uchrashuvi».

3.V.I.Surikov. «Boyar ayol Morozova».

uyg'onish davridan boshlab uzluksiz ishlatib kelinmoqda.

Ko'pincha asarning tomoshabin tomonidan qabul qilinishi, uning kompozitsiya yechimiga bog'liq ekanligini yodda tutmoq kerak.

Badiiy asar yaratish jarayonida kartina ustida ijod qilish kompozitsiya yutuqlaridan biri deb e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Kompozitsiyani o'simliklar dunyosi majmuidan boshlab o'rganishga harakat qilib ko'raylik. Daraxt misolida ko'rilganda unib chiqayotgan ildiz, shox, barg, novdalarining tanasiga uzviy bog'liq ekanligini nazarda tutmoq lozim.

Tasviriy shakllar orqali esa bo'laklarni bir-biriga bog'laydi va umumlashtiradi. Tasvirlash, demak, asar bo'laklarining o'zaro aloqalarini o'rnatish, ularni umumiy yaxlitlikka bog'lash, umumlashtirish orqali ko'zlangan maqsadga erishishdan iborat.

Kartina «kompozitsiya» so'zi bilan atalganda, asarning umumiy ko'rinishi, mazmuni, maqsadi yorqin bir maromda ifodali tasvirlanishi, chizmatasvir, rangtasvir shakl ko'rinishlarining birlashishlari nazarda tutiladi.

Kartina qaysi janrga mansub ekanligi va ifodalash uslubidan qat'iy nazar «kompozitsiya» so'zi bilan atalishi kartinaning tugallangan san'at asari ekanligini bildiradi.

Boshqa bir holatda bu so'zi tasviriy san'atda ustuvor yo'nalish, biror asosiy qism hamda asar tuzilmasini baholash mezoni sifatida tushuniladi.

Mukammal bilimlar asosidagina haqqoniy mahoratga ega bo'lish va erkinlik bilan ijodiy yutuqlarga erishish mumkin.

Rassomlar asrlar davomida o'z asarlarini tasvirlash, yechimini aniq, ravshan, tiniq namoyon etish maqsadida kompozitsiyaning yangi

4.R.Ahmedov. «Qo'shiq».

tuzilmalarini qidirishgan.

Natijada asarlarda shakl qismlarining joylashuvi tartibsiz emasligi, mato yuzasida syujetning ahamiyatga molik bo'laklari oddiy geometrik ko'rinishlardagi joylashuvidan (uchburchak, piramida, doira, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklardan) tashkil topadi.

Biror mustahkam, harakatsiz turgan hayotiy lavha obrazini berishda yopiq holdagi mutanosib kompozitsiya mos keladi. Bunda chiziqlarning asosiy yo'nalishlari markaz tomon intilgan bo'ladi. Simmetriyasi hisobga olingan aylana, kvadrat va to'rtburchak shakllari kerakli darajada asar ifodaliligiga yordam beradi.

Bu xususda quyidagi G.Abdurahmonovaning «Kashta tikuvchi qiz», M.To'xtayevning «Oila», J. Umarbekovning «Olis bolalik», V.Perovning «Mitishiya qishlog'ida choyxo'rlik» (6-11 rasmlar) kabi kartinalar bilan tanishib, o'rganib, ishonch hosil qilish mumkin.

Fazoviy manzara yoki katta kenglikni tasvirlashga kirishar ekansiz, unda atrofni daraxt va binolar bilan qamrab olish shart emas, balki ramkadan chiqib ketayotganligini ochiq kompozitsiya usulida tasvirlash maqsadga muvofiqdir. Bunda chiziq yo'nalishlari markazdan taralgan bo'ladi.

Tomoshabinning ravon fikrlay olishini shakllantirish maqsadida birinchi plandan uzoqda joylashgan ufqni qisman turli jismlar daraxt va boshqa asar elementlari mantiqan to'g'ri ishtirok ettirilgan bo'lsa, kompozitsiyani har tomonlama mukammal, kompozitsiyaning ifodali yechimi topilgan deyish mumkin.

5.U.Tansiqboyev.
«Qayroqqum GESi tongi».

6. G.Abdurahmonova.
«Kashta tikuvchi qiz».
7. V. Perov.
«Mitishiya qishlog'ida choyxo'rlik».
8. J.Umarbekov. «Olis bolalik».

6.

7.

8.



9. M.To'xtayev. «Oila».
10. Derbilik Jozef Rayd. «Rimdagi av. Parishta qasri ko'rinishi».
11. Inog'omov. «Tinchlik bo'lsin uyingda».

9.

10.

11.

12.

12. A.Kaygetsudo.
Yaponiya, XVII asr «Go'zal», yopiq kompozitsiya.

14. I.I.Shiskin. «Tekisliklar vodiysi orasida», ochiq kompozitsiya.

Turli tarixiy davrlarda vujudga kelgan turlicha kompozitsiyalar mavjud. Tarixiy kompozitsiyalarda umume'tirof qilingan, qotib qolgan eski qonuniyatlar ustunlik qilgan. Bu esa kompozitsion vositalardan foydalanish imkoniyatini toraytirib qo'yadi.

Uyg'onish davrida dunyoviy konsepsiyaning o'zgara borishi va har tomonlama dunyoviy berk konsepsiya o'rniga ya'ni yopiq kompozitsiya o'rniga cheksiz ochiq kompozitsiya yechimi keldi.

13.

Keyinchalik jahonning yetuk rassomlari yangi yo'nalishdagi kompozitsiya asoslarini ishlab chiqdilar. Fikrlashda an'anaviy bo'lib qolgan kompozitsiya yechimlarini asarlarda oldindan o'ylab qo'yilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda yechim topishga intildilar.

Albatta kompozitsiyaning tuzilmalariga ortiqcha e'tibor ko'rsatish ham noo'rin bo'lardi.

Rassom biror asar yaratar ekan, o'zining faraziy ko'rish qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror g'oya ustida fikr yuritadi. O'quv jarayonida talabalar kompozitsiya qonuniyatlariga asoslangan tuzilmalardan foydalanishlari yaxshi natijalar beradi. Ular turli xil qiyosiy solishtirmalar natijasida yaratilayotgan asar qismlarini yoki chizmatasvir kompozitsiyasining umumiy tuzilmalarini aniqlab olish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda bu tuzilmalar yordamchi





15.

ahamiyatga egadir.

Bosqichma-bosqich amaliy tajribalarga erishgandan so'ng, kompozitsion tuzilmalar haqida tasavvurga ega bo'lish va asar yaratish qurilmasi qonuniyatlarini o'rganib olish mumkin.

Misol tariqasida Velaskesning «Bred qal'asining topshirilishi» nomli (16-21-rasmlar) kartinasining yaratilish jarayonini o'rganib tahlil qilinganda kartina kompozitsiyasi nuqtai nazaridan yaqqollik, ravon

o'qilishi, to'q-och dog'larning ritm asosida taqsimlanishi kompozitsiya mato markaziga monand tushgan.

Markazda ikki inson qomati uzoqliklar fonida tasvirlangan.

Qal'a kalitini topshirayotgan odam boshini, uning katta oq yoqasi namoyon etib ta'kidlab turibdi va kalit ushlagan o'ng qo'li o'ta ma'nodor qilib tasvirlangan.

Uning yarim egilgan gavdasi g'olib ixtiyoriga rahm-shafqatga umid bilan ishonib topshirayotganligi ifodalanadi.

Kalitni qabul qilib olayotgan odam jussasi yorug' manzara fonida ishlangan. Uning yuzlari qora fonda yorug' ko'rinishga ega bo'lib, oq yoqa va qora sochlari kontrast ravishda tasvirlangan.

Ranglarning hamma joylarda o'zaro keskinligi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yilganligi libos ustida sharfning diagonal ravishda o'ralishi hamda otning o'ng tomonda tasvirlanishi diogonal kartina ekanligini tasdiqlaydi.

Kartinaning yana bir diogonalini bayroq, markaziy qomatlarning qo'l holatlari va chap burchakda joylashgan qurollar tashkil etmoqda. Uchinchi planda jangchi kaftanining yorug' dog'lari va uning yonidagi ot boshi fazoviy bo'shliqning chuqurligini ifodalab bermoqda (16-rasm).

Ikki qora dog'ni bir daqiqaga berkitib ko'raylik, bunda siz kompozitsiya bir butun yaxlitlikka birlashganligini hamda uning fazoviy kengligi yo'qolayotganligini birinchi va oxirgi planlar birlashib qolganligining guvohi bo'lasiz.

Fazoviy bo'shliq kompozitsiyasi bir necha planlar va uzoqlik

16. Velaskes. «Bred qal'asini topshirilishi».
17. Markaziy qismning ko'rinishi.
18. Kompozitsiya qism ko'rinishi.

16.

17.

18.

19.



20.

21.

perspektivalaridan tashkil topadi.

Kompozitsiyada turlicha jozibador, ma'no va mazmunli yechimlar mavjud. Bu borada keyinchalik har bir qismni o'rganib, muhokamadan o'tkazib olishingiz mumkin. Rassom asardagi xarakterlar ustida ishlarkan, unda umumiy yaxlitlik va turli xillilik yo'nalishlariga qat'iy rioya qilgan.

Bayroqlar bilan noqulay tig'izlikni kiritish- ritmik turli xillilikni va o'zgarishlarni ko'tarinki, shodiyona ruh bilan go'yo nota orqali asarni jonli ifodalaydi.

P.Florensiy san'at asarlarining ba'zi ko'rinish va shakllarining o'z ritmik yozuvi bo'lib, aynan shu yozuvning o'zida o'qish uchun kalit ham mavjudligini aytadi.

Shunisi ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlab o'tish lozimki, Velaskesning o'qish uchun «kalit»i, qal'a kalit tasviri bilan berilgan bo'lib, haqiqatan ham biri-biriga mos tushgan. Shuni ta'kidlash zarurki, kompozitsiya markazida kalit qo'yilgan mato joylashgan bo'lib, maxsus va alohida ko'p qirrali burchaklar to'q yorug' ranglar bilan ajratilgan.

Velaskes o'z kompozitsiyasida bunday usul va qonuniyatlardan foydalanishining sababi, kartina yechimini mazmunan mukammal ko'rinishga, shakl siymolarni yanada tushunarliroq qilib ifodalash edi.

San'at tarixida umume'tirof qilingan kompozitsiya qonun-qoidalaridan (antik, uyg'onish davri, borokko, klassitsizm v.b.) usullaridan foydalanib asar yaratish jarayoni muhim o'rin tutadi va ulardan voz kechib, erkin kompozitsion usullardan foydalanib asar yaratishga intildilar (XIX-XX asr).

Yakka tartibda ijod qiluvchi rassomlarda o'z ijodlari davomida kompozitsiya turli jo'shqinlik, his-hayajonlarni uyg'otadi.

19. Kompozitsya qurilmasi.
20. Kompozitsiyada uyg'unlik.
21. Kompozitsiyada och va to'q ranglarning qarama qarshiligi.

22.

Kompozitsiya o'zining qamrovi bilan talay imkoniyatlarga ega. Kartinada kompozitsiyaviy yechimlar uzoq o'tmish va yaqin davrlarda ketma-ket sodir bo'lgan voqeliklarni tasvirlash imkonini beradi.

Kompozitsiyaning yechim va uslublari to'lig'icha san'at turiga bog'liq bo'ladi. Umumiy qonuniyatlar bilan bir qatorda har bir san'at turining o'z xususiyatlari mavjud. Shu bois yagona bir kompozitsion uslubdan turlicha foydalanish mumkin.

Rangtasvir asarida kompozitsion yechimlar shunday bo'lmog'i lozimki u tabiiyligi va uzviyligini yo'qotmasin. Badiiy asar oliy maqsadini tomoshabinga majburan bog'lab qo'yish noo'rin bo'lur edi. Tomoshabinning rassom g'oyasi va kartina mazmuniga tushungan hamda idrok etgan holda kirib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kompozitsiya rangtasvirda fazoviy kenglik va chuqurlikni tasvirlashga yordam beradi.

Tasviriy san'atda badiiy asarning g'oyasi, mazmuni, xarakteri va

22.V.Burmakin. «Tutilish».
23.V.Jiboyedov. «Xiva».
24.B.Ismoilov. «Kompozitsiya».

23.

24.

25.

26.

27.

25. O.Muinov. «Bibixonim portreti».
26. U.Boltaboyev. «Bozor lavxasi».
27. J.Izintayev. «Natyurmort».

uning maqsadi kompozitsion qurilmalar asosida bunyod etiladi. Kompozitsiya xoh avangard, xoh realizm yo'nalishida bo'lsin, har bir asarda ishtirok etadi.

Realistik kompozitsiyada o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, inson qomatlari va jismlarning tekislik ustida qanday joylashganligi, ular orasidagi masofalarni hosil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar orqali kartinada illyuzion maydon paydo bo'lib, nur va soya munosabatlarini hosil qiladi va turli hajmlarni namoyon etadi.

San'atshunoslikda kompozitsion tip degan tushuncha mavjud bo'lib, u asarda qay yo'sinda qo'llanilganligi va qurilganligini anglatadi. Agar u dumaloq shaklda qurilgan bo'lsa «tondo» deb nomlanadi. Bundan tashqari, kompozitsiya simmetriya qonuniyatlariga asoslangan holda yopiq yoki ochiq statik mustahkam qurilishi mumkin. Uyg'onish davri san'atida markazlashgan kompozitsiyaga asoslangan mustahkam va yopiq kompozitsiyalar ustunlik qilgan. Ochiq usulda markazdan turli tomonga taralayotgan chiziqlar mavjud. Qadimgi Misr va Sharq, antik, o'rta asrlar Uyg'onish davridagi kompozitsiya turlarining har biri u yoki bu san'atning uslubiy xususiyatlariga ta'sir o'tkazgan. Uyg'onish davriga qadar fazo, ko'pincha o'zining silliq yechimini topgan. XV asrga kelib esa tasviriy san'atning ko'p muammolarini hal etib beruvchi to'g'ri perspektiva paydo bo'ldi. To'g'ri perspektivadan foydalangan holda yorug' havo bo'shlig'i muhitini yaratish, nur-soya o'yinlari asosiga qurilgan kompozitsiyaning akademik usullari keng tarqaldi. Yangi davr san'atida rassom, atrof dunyo haqidagi tasavvurlarga ega bo'lgan holda yondoshib, o'zini namoyon etishga harakat qiladi. Avangard yo'nalishlar, jumladan qomatsiz, mavhum kompozitsiyalar paydo bo'lishi tufayli, barcha realistik rangtasvir qonuniyatlarining yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkin.

Realistik san'atning har bir janrida kompozitsion yechimning o'z usullari shakllangan. Rangtasvir, grafika asarlarini yaratish jarayonida rassom san'atning dastgohli turlariga oid bo'lgan bilimlari, ichki uyg'unlik hissiyoti va kompozitsiyadagi barcha qismlarning to'g'ri joylashganligi haqidagi tuyg'ulariga tayanadi. Uyg'unlik tushunchasi, koinot va inson tabiati uyg'unliklari singari oliy va mukammallik darajasini bildiradi. «Uyg'unlik» - bu bog'liqlik, birlashuv, muvofiqlik, o'lchamlilik va mutanosibliklardir. Rassomlar o'z asarlarida barcha bo'yoq dog'larining yagona bir koloritga bo'ysundirilishiga erishish maqsadida ma'no va mazmunga alohida urg'u beradilar. Kompozitsiyada och-to'q, rangdor-axromatik, yirik-mayda, faol-nofaol kabi munosabatlar bir maromda mantiqan mazmunga etkaziladi. Kompozitsiyaning bir qismidagi, yuqorida aytib o'tilgan ashyolardan birining ta'sir etish intensivligi, qarama-qarshi tomondagi boshqa

28.

29.

30.

28. Ch.Ahmarov. «Shoirlar davrasi».
29. B.Mahmudov. «Uyg'onish».
30. I.Valixo'jayev. «Do'ppi».

omillarning faollashuvi evaziga, mutanosibliklar yaratib beriladi. O'quv jarayonida ijodiy ishlar bajarish va butun jahon miqyosidagi hamda ona zamin tasviriy san'at durdonalarini tomosha qilib, ularga baho berish orqali, voqelik rivoji haqidagi axborot hajmini rassom tomonidan badiiy his etilishi muammosini alohida ta'kidlash lozim. Aynan shu omillar keyinchalik rassom mahoratiga asar yaratish uslubining shakllanishiga, shu bilan birga o'z asarlarida qo'llangan kompozitsiya ishlash jarayoniga munosib ta'sir etadi. Bunda rassom kompozitsion usul, kompozitsion qonun qoidalar va kompozitsion vositalar deb nomlanadigan qoidalarga asoslanadi. Bundan tashqari voqelikni badiiy his qilishda «plastiklik» va «tonallik» singari tushunchalar ham katta rol o'ynaydi. Plastika deganda jism yuzasini silliq, ravonligi nafis go'zalligi tushuniladi. Plastikaning asosiy xususiyati - jismlar shaklining badiiy ifodalanishidadir.

Tonallik - rang, yorug'lik va ohang tushunchalarini o'z ichiga oladi. Rang tuslarining asosiy rang spektoriga bo'lgan uyg'unlik munosabatidan kelib chiqqan tonallik yuzaga keladi. U barcha ranglarni umumlashtirib, o'ziga bo'ysundiradi va yaxlit koloritni hosil qiladi.

O'lchamlilik qonunlari kompozitsiya qismlari va yaxlitlik o'rtasida sanoqli nisbatlarni o'rnatadi. Uyg'un kompozitsiyada bunday o'lchovlarga ritmika va mutanosiblik kiradi. Tektonika so'zi tasviriy san'atda ma'lum tushunchalarga ega bo'lib, u kuchlar ta'sirining ko'z bilan ilg'anadigan, qayriltirish, kesish, burash, osish, ravoq, to'sin va hokazo tektonikalarga ajratiladi. Tektonika kompozitsiyaning har bir jism va qismdagi harakatning ko'rinish darajasini beradi.

Mutanosiblik printsipi kompozitsiyaning barcha tomonlari va tasvirlangan jismlarning xususiyatlarini juft munosabatlarda yaxlitlik bilan bog'laydi. Shuningdek bu uzviylik maydonida plastika va hajmlilik tushunchalari ishtirok etadi. Mutanosiblik tushunchasi jism qismlarining o'lcham borasidagi o'zaro munosabatlarini izohlaydi. Umumlashtirib oladigan bo'lsak, mutanosiblik bu yaxlitlik va bo'laklar orasidagi nisbat yechimini to'g'ri topishdir. Tasviriy san'atda kompozitsiya qonunlari, printsip, vosita va badiiy timsol tushunchasi bilan bir qatorda kompozitsion usul tushunchasi ham mavjud. Kompozitsion usul - badiiy timsol tuzilmasi, aniq kompozitsiyadagi muhim tomonlarning qisqacha izohidir. Yaxlitlik, birlik kompozitsiyaning asosiy qonunidir.

Minglab yillar davomida Sharq tasviriy san'atida ramz va belgilarning yaxlit majmuasi ishlab chiqilgan. O'zbek xalq amaliy bezak san'atidagi naqshlarning ma'nosi tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otadi. Geometrik, o'simliksimon va bo'rtma tasvirlar, shu qatorda

K. Behbud nomidagi Milliy Bastakorlik va Dirijyo Instituti KUTUBXONASI

31.

32.

qadimiy tarixga ega bo'lgan doira, kvadrat, uchburchak shakllar ma'nosidan hozirgi kunda O'zbekiston tasviriy san'atida keng foydalanilmoqda.

Kvadrat dunyoning 4 tarafini anglatsa, uchburchak ayriliq, ajralish ramzi hisoblanadi.

Doira yovuz kuchlardan saqlaguvchi, Xudo hamda Borliq va Quyoshni anglatadi. Doira eng mukammal shakl, u baxt belgisi ham hisoblangan. Ushbu ramz kichik doirachalar ko'rinishida bo'lib, devoriy panno, amaliy san'atda ko'p qo'llanilgan. U tumorcha deb nomlanib, ajdodlarning ishonchlariga ko'ra ko'z tegishdan, turli ofatlardan asragan.

Qadimiy ramz naqshi 2 ta mazmunni anglatgan. Agarda u o'ng tomonga yo'nalgan bo'lsa, u abadiy harakatni, chap tarafga qaragan bo'lsa vayrona qilishni, talofatlarni anglatgan.

O'zbek naqshida keng tarqalgan o'simliksimon va zoomorf naqshlar ham o'z semantikasiga ega. Quyosh, hayvon, hashorat va inson tasvirlari taraqqiyotning ma'lum bosqichida gul tasviri bilan uyg'unlashib, o'simliksimon naqshlarga aylanib ketdi.

O'zbek xalqining asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari nihoyatda boy, rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib durdonalarini tashkil etadi.

Amaliy san'atda rassom kompozitsiya usullari orqali bezatilishi kerak bo'lgan tekisliklarga jilo berish bilan birga buyumlarga bo'rtma shakl berish, hamda go'zallik nafosat qonun-qoidalari asosida san'at asari durdonalarini yaratish ustida ijod qilishga intiladi. Amaliy san'atda kompozitsiya mavzusi yechimlarini turli xil usullar, izlanishlar orqali

31. G'.Yo'ldoshev.
«Olti qirrali stol». Yog'och o'ymakorligi.
32. A.Abdujalilov. «Ganchdan kompozitsiya».
33. A.Rahimov. «Jannat og'usi». Bezakli vaza.

34.

ifodalanishi rangli kartina kompozitsiyasi ustida ishlash jarayonlaridan mutlaqo farq qiladi. Amaliy bezak san'atida tasvirlash usullarining turlicha yechimlariga qaramasdan, bosqichma-bosqich uslubiy ijro jarayonida ertaklarga ishlangan illyustratsiyalardan ko'rinishlar kiritish, bu holatda kitoblarga ishlanayotgan miniatyura va illyustratsiyalar bezakli ravishda o'z yechimini topishi mumkin.

Mavzuli bezak kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular boshqa san'at turlariga o'xshamasligi, takrorlanmas badiiy yechimlari bilan bir olamdir. U o'zining mavzu ma'nosini osonlik bilan anglab olinadigan, ravon bayon etish xususiyatlari bilan boshqa san'at yo'nalishlaridan farq qilib turadi. Bezak san'ati kompozitsiyasida buyum shakli va jismlarga bayramona kayfiyat baxsh etuvchi naqshindor nafis go'zallik ato etuvchi yechimlarga erishish maqsad qilib olinadi. Topilishiga rioya qilish, shakl ko'rinishi yechimlarini tasvirlashda ijodiy izlanish jarayonida umumiy yaxlitlikka erishish va ikkinchi darajali ko'rinishlardan holi bo'lish, asosiy ko'rinishni yanada mukammalroq go'zalroq, bo'rttirib ko'rsatishga erishish kabi qator vazifalar turadi. O'zbekistonda xalq amaliy bezak san'ati kompozitsiyalarida geometrik, o'simliksimon va bo'rtma tasvirlar bilan bir qatorda qadimiylikka ega bo'lgan doira, kvadrat, uchburchak shakllaridan keng qamrovda foydalanilmoqda.

O'zbek naqshlarida keng tarqalgan o'simliksimon va zoomorf naqshlar o'z taraqqiyotining ma'lum bosqichida gul tasviri bilan uyg'unlashib, o'simliksimon va geometrik naqshlar majmuiga aylanib ketdi. Zamonaviy o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, kulolchilik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, kandakorlik, zardo'zlik, gilamchilik va boshqa turlari mavjud.

Hozir Respublikamizning Xiva, Buxoro, Qo'qon va Toshkent kabi hududlarida xalq amaliy bezak san'ati maktablari faoliyat

34. Miniatyura.
35. R.Levidskiy. O'zbek xalq ertagiga ishlangan rasm.
36. N.Kalonov. «Uloq», linogravyura.
37. F.Gambarova. Kambodja xalq ertagiga ishlangan rasm.

35.

36.

37.

38.

ko'rsatmoqda. Bu maktablarda yaratilayotgan san'at asarlari o'zining an'anaviy bezatish va ishlov berish usullariga ega. Shu bilan birga ashyolardan foydalanish, rang tayyorlash texnologiyasi, o'simliksimon hamda geometrik girixlardan kompozitsiyalar tuzishda bu maktablar bir-birini takrorlamasligi bilan bizning e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi.

Sharq uyg'onish davrida barcha sohalarda bo'lgani kabi liboslarga tus berishda ham g'oyat ilg'or tajribalarga erishilgan. Liboslar shakli estetik ideal, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, udum va marosimlar, din, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lana borgan.

XIX asr o'zbek milliy liboslarida keng, uzun, yaxlit bichimli inson qomatini berkitib, erkin to'kilib turishi kabi qadimiy xususiyatlar saqlangan. Kiyimlar o'z egasi haqida juda ko'p axborot bera olgan. Uning qaysi viloyatda istiqomat qilishi, yoshi ulug' yoki kichikligi, nasl nasabi, oilaviy ahvoli (turmush qurganligi yoki qurmaganligi), ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasi va shu kabilar haqida ma'lumot berib turgan.

O'zbek milliy kiyimlarining bichimi asosan 3 turga bo'lingan: Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent va Xorazm turlari.

Buxoro ayollari liboslari Buxoro-Samarqandcha bichimga ega bo'lgan. Bu bichim boshqa bichimlardan yengi va kiyim yegnining kengligi bilan farqlanadi. Shuningdek, liboslar bezagida Buxoro zardo'zi asosiy o'rin egallaydi. Buxorolik ayol libos majmuining rang yechimi va naqshlar kompozitsiyasi boshqa viloyatlarga nisbatan keskin va yorqinligi bilan farq qiladi. Ich ko'ylagining rang tusi ustki ko'ylagiga nisbatan ochroq, yoqa o'mizi chuqur emas, eng va ko'ylak etaklarida mato rangiga kontrast bo'lgan iplardan islimiy naqshlar tikilgan. Ustki ko'ylagi yengi, etagida yenli zardo'zi usulda tikilgan islimiy naqshlar, yoqa o'mizidan tizzasigacha uzunlikda, xuddi shunday zardo'zi tikilgan naqshlari vertikal ritmda joylashgan peshkurtadan iborat. Oyog'ida lozim va zardo'zi naqshli kavush. Boshida mahalliy ipak matodan, naqshlari metall iplar bilan tikilgan kultapumak. Peshonaband bahmal matoga tilla iplardan zardo'zi usulda ishlangan islimiy va girix naqshlar to'plamidan iborat to'rtburchak ko'rinishdagi xililim ro'moli bo'lib, kostyum majmuini esa zebigardon va boshqa taqinchoqlar yakunlagan.

39.

38 a.

39 a.

XI asr 2-yarimidagi O'zbek milliy liboslari.

38. Xorazm.

39. Farg'ona.

40. Buxoro.

40.

40 a.

40 b.

Buxoro erkaklarining liboslari och rangli, paxta tolali matodan tikilgan yaxtak, ustidan engi, yoqasi, oldi, etagi zardo'zi usulda ishlangan naqshli chopon, sholvar ishton, zardo'zi etik, bosh kiyimi do'ppi va salladan iborat.

Farg'ona va Toshkent liboslariga xos ranglar havorang va och yashil tusdagilardir. Bu voha ayollarining liboslar majmuiga e'tibor qaratsak, beqasam va boshqa matolardan tikilgan qayirma yoqali kamzul, lozim va oyog'ida charm kavush, boshida ipak ro'mol, ro'mol sirtidan esa tillaqosh, quloqlarga zirak va ko'ksiga zebigardan taqilgan.

Erkaklar ichidan yaxtak kiyishgan, ustidan qavilgan paxtali beqasam matoli chopon. Chopon ustidan kashta naqshi tushirilgan xonatlasdan qiyiqcha bog'langan, qiyiqchaga qinga solingan pichoq osilgan. Boshida chust do'ppi ustidan kashta tikilgan xon atlas ro'mol bog'langan. Oyog'ida baland poshnali charm etik.

Liboslar kompozitsiyasi o'zining sodda va nafis ranglari uyg'un va sokinligi bilan ajralib turadi.

Xorazm viloyati ayollarining o'ziga xos kiyinish odobi bo'lgan. Ko'chaga chiqayotgan xorazmlik ayol ichidan yupqa ipak yoki yarmi ipak (ko'pincha adras) matodan tikilgan, yoqasi chuqur vertikal kesimli ichki ko'ylak, ustidan paxta bilan qavilgan chopon sifat elak kiygan. Oyog'ida mahalliy charmdan tikilgan an'anaviy kavush, boshida kumush yoki zardan yasalgan zargarlik buyumi, tax'yado'zi va do'ppi, cho'qqisida ko'p miqdorda osilgan tangachalarga ega sulton jiga bo'lgan.

Ko'ksida uch qator ko'pgina osilchoqlarga ega zardo'zlik buyumi shavkala tikilgan. Libosning kompozitsiyasi sodda va ixcham bo'lib, ba'zida eng uchi, etak, vertikal tushgan old kesimdan bezak sifatida mato rangiga nisbatan yorqinroq jiloli jiyaklar o'tgan va asosiy kompozitsion markazi boshi va ko'ksida bo'lgan. Xorazmlik erkak kishining an'anaviy kiyimlaridan biri gorizontal kesimli yoqa o'mizi mavjud yengil ko'ylak paxta tolali matodan tikilgan. Ustidan kiyilgan nastardesh belbog' ro'moli bilan bog'langan. Paxta toladan to'qilgan ishton. Oyog'ida an'anaviy charm kavush, boshida qo'y mo'ynasidan tikilgan sugurma liboslar majmuini tashkil qiladi.

Barcha o'zbek milliy liboslari naqshlarining joylashishi, nisbatlar va simmetriya qonuniyatlariga rioya ettirilgan.

Kompozitsiya har doim rassom oldiga maqsad sari intilishda turli xil muammolar qo'yadi. Bunga javob aniq va o'ziga xos takrorlanmas yechimlar bo'lmog'i kerak.

Kompozitsiyada hamma narsa, buyum va ko'rinishlar o'z vazifalari bilan muhim ahamiyatga egadirlar. Tekislikda joylashuvi va siluetlarning ta'sirchanligi ritm chiziqlarining ketma ketligi, soyalar va fazoviy kengliklarning berilishi hamda tasvirning kuzatish nuqtasidan



a.



b.



v.

g.

ko'rinishi, to'q va och soyalarning sath bo'ylab taqsimlanishi kartinaning rang koloriti, qahramonlar his-hayajon holati va o'lchamlar tomoshabinlar ishtirokigacha bo'lgan barcha omillar nazardan chetda qolmasligi darkor. Kompozitsiya faqatgina fikr bo'lib qolmasdan balki asarning asosiy me'zonlaridan biridir.

Rassomlar kompozitsiyadan vosita sifatida foydalanib kelganlar. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va xalq amaliy san'ati, dizayn yo'nalishlari bo'yicha asarlar yaratib ularning his-hayajon jozibadorligiga, ta'sirchanligiga e'tibor berganlar.

Rassom o'z ijodida qo'liga mo'yqalam yoki qalam olar ekan, u o'zining ichki his tuyg'ularini vaqt talabidan kelib chiqqan holda plastik shakl yechimi orqali ifodalashga intiladi.

Kartina tuzilmasini oldindan tasavvur qilish mumkin. Kompozitsion san'at asarlarida doimo mashqlar orqali, kerak bo'lsa kompozitsiya yangiliklarini rivojlantirish va an'anaviy tuzilmalarini o'rganib olish mumkin.

Kompozitsiya ustida ishlashni nimadan va qanday boshlash kerak?

Agar qog'oz yoki mato yuzasiga gorizontal to'g'ri chiziq o'tkazilsa, u chiziq yuqori qismi osmon pastki qismi yer tasavvurini beradi (a-rasm). Endi ushbu qog'oz yoki matoga vertikal chiziq o'tkazilsa, tomonlar xona yoki uy burchagi tasavvurini beradi (b-rasm).

Ya'ni, bu mashqlardan xulosa - fazo tasavvuri shakllanishi bilan bog'liq xaykaltaroshlikdan boshqa barcha tasviriy san'at turlarida kompozitsiyaning ya'ni xayotiy lavhaning fazoviy tizimini yaratishdan

a.

v.

b.

g.

41. Qog'ozda inshootlarni joylashtirishga misol.

42. M.Sodiqov. «Dorbozlar».

42.

iborat. Endi yuqoridagi ikki chizmaning bir yuzada jamlanuvi misolida fazoviy tasvir shakllanuvida to'xtalamiz. Bu tasvirlar birinchisida gorizontal cho'ziq ufq chizig'i gorizont bilan bir kelganda, ikkinchisida esa ufq chizig'i yuqoriga joylashtirilgandagi holati (v-rasm).

Endi bu tasvirga nuqta tasviri (uchib borayotgan kaptok yoki jussa va hokazo) fazoviy o'rnini mantiqiy to'g'ri belgilash kompozitsiya asosiy maqsadi hisoblanadi (g-rasm).

Bir varaq qog'ozga bir nuqtani joylashtirar ekanmiz, keyinchalik uni bundanda yaxshiroq va ma'noli joylashtirish muammosi paydo bo'ladi. Tekislikdagi nuqtani joyidan boshqa tomonga suradigan bo'lsak, fikrimiz ham o'zgara boshlaydi. Nuqta o'rnida inshoot yoki biror shakl bo'lishi ham mumkin.

Masalan, milliy dorbozlar o'yinini kuzataylik. Dor o'yinlarini ko'rish uchun to'planayotgan tomoshobinlarning dorboz namoyish etayotgan katta balandlik nuqtasidan qaralganda, kompozitsiyada yangi muammolar paydo bo'layotganligini va chiziqlar yuritilsa bo'laveradigan nuqtalar kutilganidan ko'proq ekanligi ma'lum bo'ladi (42-rasm).

Odamlardan tashkil topgan zanjirni tasavvur etib, ularga balandlikdan qaralganda zanjirsimon chiziqlarni ko'ramiz.

Birinchi chizmatasvirda daryoda qayiqni boshqarayotgan odam tasvirlangan deb tasavvur etish mumkin.

Ikkinchi chizmatasvirda toqqa chiqayotgan alpinist tasvirlangan.

Uchinchi chizmatasvirda yo'lda to'xtab turgan avtomashina tasvirlangan.

To'rtinchi chizmatasvirda qishloq ko'chasi tasvirlangan.



M.Irgashev.

43.

44.

43. Kompozitsiyada bir necha nuqta va chiziqlardan tashkil topgan tuzilmalar ko'plab yaxshi yechimlarni beradi.

44. Bir necha nuqta va chiziqlarga asoslangan holda kompozitsiya qurilmasini tuzish.

Ijodkor bu tuzilmalar orqali o'z kartinasini ko'rib chiqishi mumkin. Nuqta, dog' va chiziqlardan xilma-xil va poyonsiz kompozitsiya asarlarini yaratish mumkin. Rassom mahoratining yuqori bosqichga ko'tarilishi uchun kompozitsiyaning sir-asrorlarini, muammo va turli yechimlarini o'zlashtira olish, qonun-qoidalar, usul va uslublar to'g'risida to'la ma'lumotlarga ega bo'lmog'i kerak.

Kompozitsiyaning qonun - qoidalari, usul va vositalari

Kompozitsiyaning badiiy amaliyoti va ravnaq nazariyasi davomida shakllanib boradigan o'z qoida-tartiblari mavjud. Bu masala keng miqyosli murakkab masala bo'lib, mavzuli kompozitsiyalar qurishda ko'mak beruvchi, g'oyani badiiy asar darajasiga ko'taruvchi, bir so'z bilan aytganda, kompozitsiya ishlash qonuniyatlari, qoida, tartib va uslublari haqida so'z boradi.

Biz asosan realistik asarning yaratilishiga ta'lluqli bo'lgan jarayonni kuzatamiz. Realistik san'at faqatgina borliqni tasviriy ifodalabgina qolmasdan, balki rassomning his-hayajonli tuyg'usi orqali oddiy narsalarga go'zallik baxshida etiladi, ya'ni olamni estetik kashf etadi.

45. Leonardo da Vinchi. «Mona Liza Jokonda» portreti.

Albatta rassomdan uning badiiy-ijodiy mahoratini ilg'or g'oyalarga intilishini hech qanday qonunlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Iqtidorli rassomlar tabiatdan kompozitsiya yechimlarini his etish, sezish, fikrlash, ko'rish orqali topishlari mumkin. Lekin kompozitsiyani rivojlantirish ustida izlanish, qidirish, nazariya va amaliyot ustida ishlash, uni amalda tatbiq etish, albatta ko'p mehnat talab etadi.

Kompozitsiya asrlar mobaynida shakllangan qonunlar va qoidalar asosida quriladi. Uning qonun qoida va usullari o'zaro bog'liq bo'lib, kompozitsiya ustida ishlash jarayonida unga hamma holatdagi harakatlar ta'sir etadi. Ilg'or g'oya maqsadlarini ishonarli, ta'sirchan ifodalashda asar yaxlitligiga amal qilgan holda va badiiy san'atning barcha imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish talab etiladi.

Badiiy asar yaratishning turli usul va qonuniyatlari, uning qurilmasi bilan tanishib chiqar ekanmiz, bunda kompozitsiyani qonuniyat va usullar asosida ifodalash ekanligini ilg'ab olamiz.

Kompozitsiyaning asosiy g'oyasi kontrastlar orqali, ya'ni yorug'lik va qorong'ulik, ruhiy ko'tarinkilik va tushkunlik, sahiylik va baxillik, quvnoqlik va g'amginlik, yangilik va eskilik, sokinlik va harakatlar orqali ifodalangan bo'lishi mumkin.

Kontrast o'zining universal imkoniyatlari bilan yorqin va ma'nodor san'at asarlari yaratishda beqiyos asqotadi.

Leonardo da Vinchi o'zining «Rangtasvir traktati qomusida» kattaliklar kontrastidan, jumladan baland-past bilan, katta-kichik bilan, to'liq nimjonlik bilan, shuningdek turli sirtlar, ashyo, hajm, shakl, tekisliklar va shu kabilardan foydalanish kerakligini aytib o'tadi.

Tus va rang kontrastlari rangtasvir, grafika va boshqa yo'nalishdagi san'at asarlarini yaratishda imkoniyat omillarining ajralmas bir qismidir.

Yorug' ob'ekt to'q fonlarda, va aksincha, to'qlari yorqinlik ichida ko'zga yaqqol tashlanadi.

V.Serov mo'yqalamiga mansub «Shaftoli bilan qiz» kartinasida (46-r.) bu jarayonni yaxshiroq kuzatish mumkin. Qizning

46.

bug'doyrang yuzi yop-yorug' deraza fonida to'q dog' bo'lib ajralib ko'rinadi. Qizning ko'rinishida sokinlik bo'lsa-da, uning yuzida hayot barq urmoqda, go'yo u hozir tabassum qiladigandek, go'yo nigohini olmoqchidek va qandaydir harakat qilmoqchidek holat yuz bermoqda.

Inson holatining o'ziga xos tabiiyligi, bir joyda qotib qolmasdan, harakatli faoliyatni tasvirda ifodalab beruvchi bunday portretlar oldida biz albatta hayratlanamiz.

Karl Bryullovning «Pompeyning so'nggi kuni» nomli ko'p qomatli, mavzuli kompozitsiyasi kontrastlardan foydalanish borasida yorqin misoldir (47-r.). Bu asarda vulqon otilish chog'ida insonlarning fojiali halok bo'layotgan payti tasvirlangan.

Asosiy qomatlar ikkinchi plan kengligida joylashgan bo'lib, charaqlagan chaqmoqning eng yorug' nurlari bilan ajratilganligi bois kontrastlar ancha kuchli ko'rinadi. Bu planda ayniqsa qomatlarning dinamik harakatlari va o'ta nozik ruhiy holatlar ifodalangan. Asarda odamlarni qo'rquv, dahshat va sarosimalar qamrab olganligi, tartibsizliklar va boshqa alomatlar nihoyatda ishonarli va tabiiy etib ifodalangan. Kompozitsiyada umumiy yaxlitlikka erishish uchun asosiy maqsadni yorituvchi diqqat e'tiborli markazni belgilash, ikkinchi darajali qismlardan voz kechish, chalg'ituvchi kontrastlardan holi bo'lish talab etiladi.

Asarning barcha yorqinlik, tus, rang koloritlari bo'laklarini o'zaro uyg'unliklar bilan birlashtirgan holda umumiy yaxlitlikka erishish mumkin.

Kompozitsiyaning ahamiyatga molik roli, voqea sodir bo'ladigan orqa fon va muhitga ajratiladi. Qahramonlar doirasi asar mazmunini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompozitsiyada yaxlitlikka va g'oyaning hissiyotlar ta'sirchanligiga

46. V.Serov. «Shaftoli bilan qiz».
47. K.Bryullov. «Pompeyning so'nggi kuni».

49.

48.

49.

erishish uchun maqsadni amalga oshirish choralarini va shuningdek o'ziga xos interer yoki manzara tanlab topish zarur.

Shunday qilib, kompozitsiyaning yaxlitligi rassomning iqtidoriga bog'liq, u ikkinchi darajali qismlarni asosiy elementlarga o'zaro bog'lamog'i, shuningdek kompozitsiyada ikkinchi darajali ko'rinishlarning o'zaro mutanosibligini o'rnatib, asosiyga bo'ysundirishi kerak. Demak, kompozitsiyaning ikkinchi darajali elementlari eng asosiy «ovozini» bo'g'ib, ilgari sakrashlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Har bir qism o'zining zarurligi bilan muallif g'oyasini biror yangilik tomon boyitmog'i zarur.

Kompozitsiyaning biror bir bo'lagini yaxlitlikka zarar yetkazmasdan olib tashlash yoki almashtirish mumkin emas. Shuningdek bo'laklar bir butunlikka putur etkazmasdan o'zaro o'rin almashtira olmaydilar. Kompozitsiya yaxlitligiga ziyon keltirmasdan biror yangi elementni kiritib bo'lmaydi.

Kompozitsiyaning qonun va tuzilmalarini bilmoq - kartina ustida ishlashda ajralmas qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ayrim hollarda rassom o'z g'oyasini mukammalroq yoritib berish maqsadida kompozitsiya qonuniyatlarini ongli ravishda buzib ishlatadi va ijodiy yutuqlarga erishadi.

Masalan, Sulton Husayn Boyqaro portretida shohning gavdasi to'laligicha o'tirgan holatda tasvirlangan. Asardagi bosh qiyofa va tana

48. K.Behzod. «Sulton Husayn Boyqaro portreti» (XV asr.)

49. Portert qurilmasi.

50.

51.

50. A.Abdullayev. «Abror Xidoyatov Otello rolida», portret.

51. V.Serov. «Aktrisa Yermolova», portret.

gavdasining boshqa bo'laklardagi nafis garmonik tuzilishlari bilan asar har qanday tomoshabinni o'ziga jalb etadi. Kartina markazini aniqlab, oddiy geometrik shakllar orqali tekshirib ko'rganimizda ham garmonik jixatdan asar mukammal ekanligini guvoxi bo'lamiz. Bunday taxlil, portretni shaklan mutanosib, har jixatdan barkamol bo'lishi bilan birgalikda estetik talablarga javob bera olishini isbotlaydi. Bu esa rassomni tasviriy san'at sir-asrorlarini mahorat bilan egallab, amalda qo'llay olganligini ko'rsatadi. Portretda shohona libosning nihoyatda bezaklarga boyligi elka va ko'krak oldi naqshlar bilan bezatilgan kiyim tasvirida yaqqol ko'rinib turibdi. Behzod zamonasining naqqoshlik san'atiga yana bir bor tan bermasdan qolmaydi kishi.

Haqiqatdan ham portretda, oddiy bir holat bo'lsa-da, inson tanasiga xos mutanosibliklar rassom tomonidan g'oyat ustalik bilan ko'rsatilgan. Portret orqali Behzod zamondoshlari va ularning ma'naviy olami haqida bizga bebaho ma'lumot qoldirganligi asarning yana bir qimmatli tomonidir. Boshqa bir portretda odam boshi va gavdasini o'ng tomonga burilgan holatda turishi va qaergadir qarab turish uchun uning oldida bo'sh joy qoldirish yoki aksincha uning boshi chapga burilganligi uni markazdan o'ngga surishni taqozo etadi.

V.Serov Yermolova portretida bu qoidani buzadi va yechimlarni samarali hal etadi, tasavvurni tomoshabin ongiga ishonarli singdiradi. Aktrisa kartinadan tashqariga -tomoshabinlarga murojaat etmoqda. Kompozitsiyada qomat silueti, libos va oyna muvozanatlari orqali umumiylikka erishiladi.

Kompozitsiya qoidalariga quyidagilarni ajratish mumkin: harakat tasvirini berish (dinamika), harakatsizlik, sokinlik tasviri (statika), oltin kesishuv (uchdan bir).

Kompozitsiya usullari ritm, simmetriya, asimmetriya, kompozitsiya qismlarining muvozanatliligi va kompozitsion markaz ko'rinishini bo'rttirib ko'rsatishlarga ajratish mumkin.

Kompozitsion vositalarga o'lchov (format), kenglik, kompozitsion markaz, muvozanatlik, ritm, kontrast, yorug' va soya, rang amaliy bezak (dekorativnost) dinamika va statika, simmetriya va asimmetriya, ochiq va yopiq, umumiyliklar kiradi. Shunday qilib, kompozitsion ko'rinishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan qoidalar va usullar turli-tumandir.

Ularni kompozitsion ko'rinishlari badiiy ifodalash mezoni deyilib, bu erga ularning hammasi kiritilmagan, faqatgina asosiylari olingan xolos.

Ritm, harakat va tinch holatni tasvirlash

Ritm - tabiatda jism va xodisalarning ma'lum tartibda, muntazam izchillikda takrorlanishi.

Ritm - bu kompozitsiya qismlarining bir tekis, uzluksiz, ketma-ketligi tartibi bo'lib, kompozitsiya qismlarining va ular orasidagi masofalarning takrorlanish qonuniyatini anglatadi.

Asar ritmi bu nafaqat o'xshash, balki bir-biriga o'xshamagan, uzoq joylashgan tizimlar ketma-ketligidir. U takrorlanuvchi chiziqlar, rang dog'lari, nur va soya va hokazolar ko'rinishida bo'ladi. Shu omillardan biri yetakchi rolni egallab, asardagi ritmiylikni o'zi orqali belgilab beradi. Teng elementlar ketma-ketligi ko'rinishdagi ritm teng masofalar bilan belgilanadi va u odatda metr deb yuritiladi. Kompozitsiyada ritm va metr uyushganligini ko'p marotaba uchratish mumkin. Shuningdek rang ham ritm hosil qiluvchi omil sifatida nazarga olinadi. Chunki chiziqlar ritmdan tashqari holatda bo'lganda matoda rang taqsimlovchi ma'lum rang-tus qonuniyatlari mavjud bo'ladi. Ritmlar chiziqli, rang dog'lari, plastik massa kabi bir necha turlarga ajraladi. Chiziqli ritmga misol sifatida o'rta asrlarga oid Varaxsha saroyi devoriga ishlangan suratlardagi fil ustidagi chavandozlarning yirtqichlar bilan qilayotgan janglari sahnasini keltirish mumkin. Har tomonga xilpirayotgan tasmalar yirtqich, fil va inson jussalarining sinussimon ritmlarida takrorlana boradi.

Ritm o'ziga xos tabiiy borliqdir. U tabiat ko'rinishlari va hodisalarida doimo ishtirok etadi. Jonli tabiat olamining u yoki bu holatda ritm bilan aloqadorlik misollarini eslab ko'ring. Koinot hodisalari, sayyoralarning aylanishi, kun va tun almashinuvlari, fasllar

52. M.Rahimov. «Afrosiyob kulolchiligi, XI-XII asr».
53. V.Sidorov. «Osoyishta vatanim».

52.

53.

54.

54.L.Akbarxo'jayev. Kompozitsiya. «Ritm va harakat».

davriyligi, o'simlik, minerallarning o'sish jarayonlari kabilar shu jumladandir.

Ritm har doim harakatni anglatadi.

Hayotdagi va san'atdagi ritmlar bir ma'no degani emas. San'atda ritmning uzilishi, ritmik bo'rttirish, notekis ritm, matematik darajada bo'lmagan aniqsizliklar jonlilik, turli xillikni berib, kerakli yechim topilmalariga olib keladi.

Tasviriy san'at asarlarida va musiqada ritm faolligini parchalanish yoki yumshoq, bosiq va sokin ohanglarda sezish va ajratish mumkin. Ritm bu ba'zi elementlarning ketma-ketligi va ma'lum darajadagi bosqichlaridir.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va amaliy san'atda ritm kompozitsiya g'oyalarini ifodalashda faol ishtirok etadi, va tasvir qurilmasida qatnashibgina qolmasdan, balki unga ma'no va jozibadorlik baxsh etadi.

Ritmni chiziqlar, yorug' va soya, dog'lar hamda rang dog'lari bilan berish mumkin. Kompozitsiyaning bir xildagi qismlaridan, masalan, odamlar qomati, qo'l va oyoqlari yoki naqshning ramziy qismlaridan galma-gallik sifatida foydalanish mumkin (56-r.). Natijada ritm kontrast hajmlarda qurilgan bo'lishi mumkin. Xalq amaliy san'ati asarlarida ritm asosiy rol o'ynaydi. Amaliy san'atda odatan kompozitsiyalar turli xil naqshlar ritmi, ketma-ketlik asosida quriladi. Ritm, sehrli tayoqchaga o'xshaydi, uning yordamida tekislikdagi harakatni bilib olish mumkin (57-r.).

55.



a b c d

55. Kitob va koptok:
a - koptok kitob ustida tinch turibdi;
b - koptok sekin harakatda;
v - koptok tez harakat qilmoqda;
g - koptok tushib ketdi.

Biz, doimo uzluksiz o'zgaruvchan dunyoda yashaymiz. Rassomlar o'z san'at asarlarida o'tayotgan vaqtni, davrni tasvirlashga intiladilar.

Kartinada aks etgan harakatlar - vaqt o'lchovidir.

Rangtasvir asar, freska, grafik illyustratsiyalarda biz tomondan harakatlarning qabul qilinishi oddiy bir holatdek tuyuladi. Chuqur borliqni va odam xarakterini yorqin, ishonchli va aniq tasvirlashda harakat dinamikasi paydo bo'ladi. Hattoki, rassomlar san'at turlaridan portret, manzara yoki natyurmortlarni matoda aks ettiribgina qolmasdan, bu tasvirlarni dinamik harakat bilan to'ldirish, uning ko'rinishi va borlig'i, harakatini, ayrim hollarda o'tmish, hamda hozirgi kun va kelajakni ifodalaydilar. Faqatgina biror bir shakl o'zgartirilishi yoki siljitilishi bilangina emas, balki uning ichki holati ham dinamik

56.

58.

ko'rinishga bog'liq bo'lishi mumkin. San'at asarlarida harakatning ishtirok etishi dinamik harakat deb yuritiladi.

Nima uchun ritm harakatni beradi? Bunga sabab bizning ko'rish a'zolarimizning o'ziga xos xususiyatlari borligidadir. Tasvir qismlarini ko'rish maqsadida biridan ikkinchisiga va shunga o'xshashiga o'tish jarayonida go'yoki harakatda kuzatuvchining o'zi qatnashayotgandek tuyuladi. Masalan, bir to'lqindan boshqasiga ko'chayotgandek nigohimizni qaratamiz. Ularda illyuzion harakatlar aks etadi. Tasviriy san'at asarlari musiqa va adabiy asarlardan farqli o'laroq, alohida ajralib turadi. Albatta bunda voqea va harakatlar rivoji asosiy vazifa bo'lib qoladi. Biz harakatni tekislikda berish haqida gapirar ekanmiz, albatta uning illyuziyasini ko'zda tutamiz. Yana qanday yo'llar bilan dinamik harakatini ko'rsatish mumkin? Rassomlar illyuzion harakat ko'rinishlarini tashkil etishda usul va sirlarni qo'llashda harakterlarga alohida urg'u beradilar. Ba'zi bir ifodalangan ko'rinishlarga e'tiborimizni jalb etamiz.

57.

Agar kitobni salgina qiya qilinsa, koptok joyidan qo'zg'ala boshlaydi. Kitob qancha katta qiya qilinsa, koptok shuncha tezlik bilan harakatga keladi va tezda kitob burchagiga etib boradi (55-r.).

Nima uchun bunday bo'layapti? Har kim shunday tajribani o'tkazib ko'rishi va uning asosida tezlik harakati kitobning baland qiyaligida ekanligiga ishonch hosil qilib olishi mumkin. Buni chizmatasvirda tasvirlashga harakat qilib ko'rilganda kitob qiyaligi burchaklarga

56. V.Serov. «Yevropani o'g'irlanishi».
57. «Yig'layotganlar». Memfisdagi qabriston bo'rtma tasviri.
58. N.Rerix. «Dengiz ortidan mehmonlar».
59. Harakatni ifodalovchi misol.

59.



а б

60.

63.

61.

nisbatan diagonalligi ko'rinadi.

Harakatni berish qonunlari:

-agar kartinada bir yoki bir necha diogonal chiziqlardan foydalanilsa, unda tasvir yanada dinamik harakatchan bo'ladi (56-r.). Agar harakat qilayotgan narsa oldida ochiq kenglik qoldirilgan bo'lsa harakat taassurotini berish mumkin (58-r.).

Harakatni berish uchun uning alohida holatini tanlab, harakterini aniq tasvirlash maqsadning eng yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, agar elementlarni biror bir asli holatdagi harakatga bosqichma-bosqich fazalar orqali kiritilsa tasvir harakat qilayotgandek tuyuladi. Qadimgi misrliklar relefidagi yig'layotganlar qo'l va holatlariga e'tibor bering. Har bir qomat ma'lum holatni egallagan bo'lib aylana atrofida bosqichma-bosqich harakatlanayotgan kompozitsiyani ko'ramiz (57-r.).

62.

64.

60. Yangi tarix.
61. V.Goryaev. «O'lik jonlar».
62. Miron. «Disk otuvchi».
63. O'.Tansiqboyev. «Pichoq charxlovchi».
64. M.Saidov. «Shunqorlar».

Asarda alohida holatlarni emas, balki yaxlit va umumiy olib qaraganimizda harakat tushunarliroq bo'ladi. Harakatdagi qism oldidagi ochiq kenglik bizga xayoliy harakatni davom ettirishni va go'yoki bizni u o'zi bilan birga harakat qilishga taklif qilayotgandek tuyuladi (65a-r., 65b-r., 65v-r., 65g-r.).

a.

b.

v.

g.

65.

65. Xarakatni berish jadvali.
66. G'.Qodirov. «Oilaviy kutish».

66.

Boshqa bir holatda avtomashina butunlay to'xtab qolgandek. Qog'oz qirrasi esa unga harakat qilish imkonini bermaydi.

Chizmatasvir chiziqlari yordamida harakatni alohida holatlarini e'tirof etish mumkin. V.Goryaevning illyustratsiyasida barcha chiziqlar ko'chaning chuqurligiga qarab yuborilgan. Ular perspektiv kenglik quribgina qolmasdan, balki ko'chaning ichkarisidagi harakatni - uchinchi o'lchamni ifodalab bergan (61-r.). Haykaltarosh diskobol haykalida qahramon kuchining nihoyatda tig'iz holatini tasvirlaydi (62-r.). Bu jarayonning avvali nima bo'lgan va endi nima bilan tugashini yaxshi tushuna olamiz.

Harakatni idrok qilib, xayolan nihoyasiga etkazish mumkin. Orqa planda joylashgan fonning oqib yoyilgan holati, asardagi inshootlarni noma'lumligi va noaniq konturlari orqali harakatni bildirishga erishiladi. Ko'p sonli vertikal yoki ufq chiziqlar aks holda, tuslarda harakatlarni to'xtatib qo'yishi mumkin (64-r.)

Harakat yo'nalishining o'zgarishi uni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi (59a, 59b-r.). Ko'rish qobiliyatimizning e'tiborli joyi shundan iboratki matnni chapdan o'nga o'qiymiz va sekinlik bilan qabul qilamiz, harakat esa go'yo tezroq harakatlanayotgandek, yurayotgandek tuyuladi.

67. K.Korovin. «Qish».

Tasvirda harakatsizlikni ifodalovchi qoidalar:

- agar kartinada diagonal yo'nalishlar yo'q bo'lsa;

- agar harakat qilayotgan borliq oldida ochiq kenglik bo'lmasa (59b-r.);

- agar ko'rinishlarda tinch holat tasvirlanib harakat yo'nalishlari aks etmagan bo'lsa (66-r.);

-agar kompozitsiyalar simmetrik muvozanat yoki oddiy geometrik tuzilmalardan (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri burchak) tashkil topgan bo'lsa unda muqim kompozitsiya deb hisoblanadi (6-11-r.).

San'at asarida harakatsizlikni his qilish. boshqa qator sharoitlarda ham yuz berishi mumkin. Masalan, K.Korovinning «Qish» (67-r.) kartinasida diagonal yo'nalish borligiga qaramasdan ot arava bilan tinch turibdi. Harakatsizlikni sezish quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'lmoqda: kompozitsion markaz va geometrik shakllar mos tushgan shuningdek kompozitsiyada muvozanati saqlangan ot oldidagi uzoq kenglik daraxtlar bilan to'sib qo'yilgan.

Mavzuli kompozitsiya markaziy qismini alohida tasvirlash

Kompozitsiya yaratishdan oldin shuni o'ylab qo'ymoq zarur-ki kartinada asosiy mezonning yechimi nima bo'ladi va uni qanday qilib bo'rttirib tasvirlash mumkin? Mavzuli kompozitsiya markazi odatda «g'oya mazmuni markazi» yoki «nigoh markazi» deb ham yuritiladi. Kartinadagi ko'rinishlarning hammasi ham muhim ahamiyat kasb etmaydi, shu bois ikkinchi darajali ko'rinishlari asosiyga bo'ysundiriladi.

Kompozitsiya markazi asosiy qahramonlar va voqeani mavzu og'ushiga qamraydi. Asardagi asosiy g'oyaviy mazmun yechimiga hizmat qiladigan qismi kompozitsiyaning markazi hisoblanadi. Kompozitsiya markazi, birinchi navbatda diqqatni o'ziga jalb qilmog'i lozim. Ushbu markaz rang yorqinligi, kattalashtirilgan tasvir, kontrast va boshqa imkoniyatlardan foydalanib alohida e'tiborni jalb etadi.

Markazni faqatgina rangtasvir asaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'atida, me'morchilikda, dizayn turlarida va shu kabilarda ham ajratib ko'rsatish talab etiladi. Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi, mato markazi bilan mos tushishini istardilar. Bosh qahramonlarni shunday qilib joylashtirish bilan rassomlar ularning muhim ahamiyat kasb etishlarini va nufuzli ekanligini alohida urg'u bilan ajratganlar (68-r).

68. 68.S.Botichelli. «Bahor».

Rassomlar kartinaning kompozitsion qurilmalaridan talayginasini kashf etdilar.

Kompozitsiya maqsadi talab etayotgan bo'lsa, mato yuzasida uning geometrik markazidan istalgan tomonga surilaverishi mumkin bo'ldi. Bu usulni V.Surikovning «Boyar ayol Morozova» asaridagi kabi harakatni berish, voqelik dinamikasi, mavzuning tezda ta'sir etishi maqsadida, albatta, undan foydalanish zarur (3-r.).

Rembrandtning «Adashgan o'g'ilning qaytishi» nomli asari asosiy g'oyani imkon qadar to'laroq yoritish maqsadida markazdan asosiy

69. Rembrandt. «Adashgan o'g'ilning qaytishi».

69a. Kartinaning kompozitsion qurilmasi.

69.

qismning yon tomon jadal surilganligi kompozitsiyaning mumtoz timsollaridan biri. Rembrandt asarida mavzu jarayonining kechishi, doimiy ota-bola muammolarining yechimi, albatta otaga tan berish kerakligini isbotlab bergan. Tug'ilib o'sgan ostonaga kelib ne azob-uqubatlarni boshidan kechirgan o'g'ilning so'zsiz nidolari, go'yo so'zlab berayotgandek tomoshabinga etkazib berilgan.

69a.

Birinchi plandan boshlab bo'shliqning chuqurligi ketma-ket kuchsizlanib boruvchi yorqinlik va rang kontrastlari ko'magida berilgan. Sekinlik bilan qorong'ulashib boruvchi kechirim sahnasi ishtirok etuvchi qomatlari yordamida aniq dalillar asosida qurilgan.

Ko'zi ojiz ota o'g'li elkasiga qo'lini qo'yib turishi kechirayotganligidan dalolat beradi. Hayotning qadr-qimmati shundayki, uyni qo'msash, darbadarlik, tushkunlikning og'ir yillari davomida o'tgan kunlar uchun kechirim so'ralmoqda. Rembrandt kartinada bosh qahramonni yorqinlik bilan ifodalab bizning fikrimizni unga jamlaydi. Kompozitsion markaz deyarli kartina chetida joylashgan. Rassom kompozitsiyaning o'ng tomonida turgan katta o'g'ilning qomati ishtirokida muvozanatli qilib tasvirlaydi. Asosiy fikrlash markazini joylashtirish balandlikka nisbatan 1G'3 masofani

70a. Velaskes. «Meninlar» kartinasi qurilmasi.
70. Velaskes. «Meninlar».

70.

tashkil etadi va oltin kesishuv qonuniga mos tushadi. Uzoq davrlardan buyon rassomlar o'z ijodlarida foydalanib kelgan ko'rinish va g'oya fikrlarni aniq ifodalashga uringanlar.

Kompozitsiyaning yana bir qonuniyatlaridan biri bu «oltin kesishma»dir. Oltin kesishma - mutanosiblikning uyg'unligini izlash uchun qulay bo'lgan usuldir. U quyidagi formula bo'yicha quriladi - yaxlitlik o'zining katta qismiga, katta qism esa yaxlitlikning kichik qismiga aloqadordir. Xuddi shu formuladan logarifmik spiral yuzaga kelib u kattalashish davomida ham o'z shaklini o'zgartirmaydi.

Kartinada ikki yoki ko'p sonli kompozitsiya markazlaridan foydalanish maqsadida rassomlar unda bo'lib o'tayotgan bir necha voqealarni va ahamiyati jihatdan bir vaqtda teng va e'tiborli qilib tasvirlashda foydalanadilar. Velaskesning «Meninlar» kartinasini va uning qurilmasini ko'rib chiqamiz (70a-r., 70-r.). Kartinani bitta markaziy kompozitsiyasi -janjalkash yosh Meninning freylinlari unga ikki tomondan engashgan. Kartinaning geometrik markazida ikkita bir xil o'lchamda dog' turibdi va ular o'zaro jipslashgan. Bir-biri bilan go'yo yorug' va qorong'udek qarama-qarshi. Ikkovidan biri oq, boshqasi qora bo'lgan tashqi olamga mansub.

70a.



Tashqi dunyoga chiqishning yagona va haqqoniy eshigi - quyosh in'om etgan nurlar bo'lib, yana biri - malika siymosi aks etib turgan ko'zgudir.

Bu chiqishni boshqa olamga - yorug'lik dunyosiga tushib qolish deyish mumkin.

Kartinadagi yorug' va to'q kontrastlikni rassom bilan vorislikka ega bo'lmoqchi bo'lgan yoki san'atga qarama-qarshi qo'yilgan ovoragarchiliklar - qulning diniy ozodligi kechinmalari deb qabul qilish mumkin. Kartinada yorug'likning boshlanishiga keng va to'liq yo'l ochib berilgan. Rassom qomati butunlay ijod qamrovida qolgan. Bu Velaskesning avtoportreti. Uning yelkasi ortida qirolning ko'zlari oldida gofmarshalning to'q qomati qiya ochiq eshik yonida turishi bilan tazyiq va ta'sir o'tkazayotganligini sezish mumkin. Rassom tomonidan tasvirlangan guruhlarda odamlar soni, nihoyatda keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan tomoshabin, xohlagan juftlikni son jihatidan tanlab olishi uchun kontrast va o'xshashligi bilan bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan, rassom va qirol, saroy xizmatchilari, go'zallik va majruhlik ota-ona va bolalar, odamlar va hayvonlar ifodalangan. Kartinada asosiy voqelikni ajratish uchun bir necha usul qo'llanilishi mumkin. Masalan, boshqalardan ajratish usuli orqali asosiy ko'rinishni tasvirlab boshqa jism va narsalardan ajratgan holda uni o'lchov va rang bilan uning kompozitsion asl qurilmasi yechimini topish mumkin. Shuni aytish lozimki, kompozitsiyada ko'rish markazini ajratish usullarining qo'llanilishi norasmiy qo'llanmada yoki rassom fikr va g'oyalarini asarda yaxshi ifodalash uchun an'anaviy usuldan foydalanish mumkin.

71. A.Aliqulov. «Amir Temur dunyo tarixida», mahobatli rangtasvir.

Kompozitsiyada simmetriya va asimmetriyani qo'llash

72.

72. Rafael. «Sekstin madonnasi».
73. M.Toshmurodov. «Alla Hasan Husan».

73.

Simmetriklik chuqur mazmuniy markazning holati, vizual massa va fazo taqsimoti, muvozanat massalarining taqsimoti, har bitta element ko'rinishi bilan shartlangan taqsimot asosida belgilanadi. Rangtasvir va grafika asarlarida o'ta aniq simmetrik kompozitsiyalar kam uchraydi. Ko'p hollarda kompozitsiyalar simmetriya o'qiga nisbatan asimmetrik joylashgan bo'ladi.

Asimmetrik kompozitsiyalar muvozanat o'qining simmetriya o'qiga nisbatan ancha uzoq joylashganligi bilan xarakterlanadi va shu bois uni kompozitsiyaning umumlashtiruvchi boshqa qismlari tenglashtirib turishi lozim. Kompozitsiyaning dinamik «oltin kesishuvi» nuqtalar bilan belgilangan chegaradan chiqib ketmasligi kerak. To'liq simmetrik kompozitsiyalar asosan naqshlarda ko'plab qo'llaniladi. Asimmetriya kompozitsiyaning murakkab ko'rinishidir. Tektoniklik mukamalligi va kompozitsiya qismlari orasida shunday kuchli o'zaro ta'sir mavjudki, bu qismlar asarning badiiy-timsoliy vazifasiga tegishli taraflarni ochib

beradi.

Turli xil davr rassomlari o'z kartinalarida simmetriya qurilmalaridan foydalanishgan. O'tmishda kompozitsiyalar simmetrik joylashuv asosida bo'lgan. Uyg'onish davri rangtasvirchilari kompozitsiyani asosan simmetriya qonuniyatlari asosida qurishgan. Bunday tuzilmalar shunday imkoniyatlarga erishishni beradiki ular sokinlik va fikrni, ulug'vorlikni, alohida bayramona tantanavorlikni va muhim voqealarni tasvirlashda yordam beradi. Simmetrik kompozitsiyalarda odamlar, jismlar shunday joylashganki ular kartinaning markaziy o'qiga nisbatan oynaviy ko'rinish egallagan (74-r., 75-r.).

74.

Simmetriya san'atda real voqealarga asoslangan holda shakllarni simmetrik borliqqa uyushtirgan. Masalan, odam qomati simmetriya

75.

asosida qurilgan. Simmetrik kompozitsiyalarda barqaror (77-r.) chap, o'ng yarimliklar muvozanatlashtirilgan va tenglashtirilgan bo'ladi.

76.

74. Insonni oynadagi aksining ko'rinishi.
75. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi. Toshkent.
76. M.Saidov. «So'nggi chanoq».



77.



78.



77. A.Akbarxo'jayev. Muvozanatli natyurmort.
78. A.Akbarxo'jayev. Muvozanatsiz kompozitsiya.
79. J.Subxonov. Simmetriyali manzara kompozitsiyasi.
80. A.Akbarxo'jayev. Muvozanatsiz manzara kompozitsiyasi.

Asimmetrik kompozitsiyalarda shakl va jism ko'rinishlari turlicha joylashgan bo'lib, asarning ko'rinish maqsadidan kelib chiqqan holda chap va o'ng tomonlari muvozanatlashtirilmagan bo'lishi mumkin.

Natyurmort yoki manzara kompozitsiyasi qurilmasini tasavvur qilish qiyin emas. Ularning simmetrik yoki asimmetrik qurilmalari tekislikda yaqqol ko'rinib turadi.

79.

80.





Kompozitsiyada muvozanatlikni ifodalash

Simmetrik kompozitsiyalarning barcha qismlari o'zaro tenglashtirilgan, asimmetrik kompozitsiyada esa tenglashtirilgan va tenglashtirilmagan holatlarda bo'lishi mumkin. Katta yorug' dog'ni kichik to'q rang bilan tenglashtirish mumkin. O'lchov jihatidan kichik bo'lgan bir necha dog'larni katta dog' bilan tenglashtirish mumkin. Talaygina tenglashtirish usullari mavjud. Ular qism kattaliklari, tuslar va ranglar yordamida tenglashtiriladi. Tenglashtirish u erdagi ishtirok etayotgan qomatlar va ular orasidagi masofalarga ham aloqadordir. Maxsus mashqlar orqali o'z kompozitsiyalarimizda muvozanatni, katta kichik balandliklarni, yorug' va to'q, turli siluet va rang dog'larini his etib o'zaro tenglashtrishni o'rganib olamiz. Bu misolda arg'imchoqda bo'lgan paytimizdagi muvozanat tajribamizni eslab ko'rishga to'g'ri keladi. Arg'imchoqning bir tomonida o'tirgan o'smirni muvozanatli qilish uchun uning boshqa tomoniga ikki bolani o'tqazish kerak bo'ladi.

Kichik bolani o'spirin bilan muvozanatlash mumkin. Bunda bola arg'imchoqning boshqa tomoni chetiga emas, balki markaziga yaqinroq o'tiradi. Shunday tajribani tarozi bilan ham o'tkazish mumkin. Bunday o'xshatishlar kartinadagi turli qismlarni, o'lchovlarni, tus va ranglar garmoniyasini topishda yordam beradi (82,83-r.). Asimmetriyali kompozitsiyalarda, ba'zida tenglik mutlaqo bo'lmaydi, chunki fikrlash markazi kartina qirg'og'ida joylashgan bo'lishi mumkin. Chizmatasvirning oynadagi aksini ko'rganda bizning fikrimiz o'zgaradi. Bu ko'rinishning o'ziga xosligi va uni kompozitsiyada tenglik qidirayotganda hisobga olmoq zarur.

Kompozitsiya qonun-qoidalari, usullari rassomlarning boy tajribalari va ijodiy mahoratiga asoslangan. Albatta kompozitsiya yaratish texnologiyasi joyida turgani yo'q, u doim rivojlanishda bo'lib, rassomlar ijodiy amaliyoti bilan yanada boyib bormoqda.

81.

82.



83.

81. A.Akbarxo'jayev. Muvozanatlashtirilgan kompozitsiya.
82. Muvozanatlashtirilgan kompozitsiya qurilmasi.
83. Sh.Qosimov. O'zbek taronalari.



84.



85.

Kompozitsiyaning ayrim usullari mumtozlikka aylanib bormoqda, ularning o'rinlariga yangilari kelmoqda, hayot esa ular oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'ymoqda.

Chizmatasvirni ko'ring va hikoya qilib bering. Kompozitsiyada muvozanatlikka qay usul yordamida erishilmoqda? (86-r.).

86.



84. J.Subxonov. Muvoznatli kompozitsiya.

85. J.Subxonov. Muvozanatsiz kompozitsiya.

86. Muvoznatli kompozitsiya qurilmasi.

87.



a.

b.

87. O.Muinov. Natyurmort kompozitsiyasi

a) rangda muvozanatlashtirilgan kompozitsiya;

b) rangda muvozanatlashtirilmagan kompozitsiya.

87. Natyurmort kompozitsiyasini: a) rangda muvozanatlashtirilgan b) rangda muvozanatlashtirilmagan. Bir xil jismlardan muvozanatlashtirilgan va muvozanatlashtirilmagan ranglar asosida qanday kompozitsiya tuzish mumkin ekanligini kuzating.

Amaliy maslahatlar

Rassom yaxshi asar yaratishga kirisharkan u atrof-muhitni, tabiatni, hodisa va voqealarni, o'simlik va hayvonot olamini, shu jumladan inson qiyofalari holatini o'ta sinchkovlik bilan kuzata bilishi va naturadan xomaki qoralamalar tasvirlash, o'z ustida ko'p ishlash, fikrlash qobiliyatini yanada o'stirib bormog'i zarur. Kompozitsiya uchun tabiatdan qiziq ohanglarni topish va uni ko'z bilan ilg'ab olish qiyin emas. Bunday hollarda kerakli ko'rinish qidiruvchi ramka yordam beradi. Uni tayyorlab olish deyarli qiyin emas. Uning qarama-qarshi tomonlari bir-biriga yaqin suriladigan bo'lishi kerak chunki tabiatda qiziqarli joylarni kompozitsiya uchun tanlab olishda formatni katta, kichik qilish imkonini beradi. Basharti sizda bunday ramka bo'lmasa, qo'llaringizni, kaftingizni (89-r.) rasmda ko'rsatilgandek kerakli shakl va ko'rinishlarni tanlashingiz mumkin.



a.

b.

88.

88. Kompozitsiyada quyidagilar yordamida qidirish:

a - kaft;

b - ko'rinishni qidiruv ramkasi bilan izlash.

Kompozitsiya uchun qulay, qiziqarli ko'rinishni tanlash har doim ham oson kechmaydi, chunki bu ko'rinishlarni ko'pchilik rassomlar o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda turlicha ifodalaydilar. Rassom bu ramka yordamida manzara, natyurmort, shaharlar, naturadan o'ziga xos xarakterli go'zal va mazmunli ko'rinishlarni o'z kartinasiga asos qilib olish uchun foydalanadi. Demak, kartina yaratish uchun o'zingizga maqbul ko'rinishni tanladingiz yoki kitob o'qib ajoyib g'oya va fikrlar mavzusida ijod qilishni o'ylamoqdasiz. Buning uchun nima qilmoq kerak? Kartinaga tushirishdan oldin uning qanday ko'rinishda bo'lishini ko'z oldimizga keltirishga harakat qilib ko'rishimiz

89. K.P.Bryullov.
«E.Myussar va E.Myussar portreti».
90. A.Aliqulov. «Tarixiy kompozitsiya».
91. «Xo'roz kungaboqar yonida». Xitoy.

lozim. Rassom yaratilajak asarni boshlashdan oldin bir necha xomaki qoramalarni bajaradi va bu qidiruvda kompozitsiya uchun zarur bo'lgan eng xarakterli syujet ko'rinishlarni topadi. Rassom bu bosqichda bo'lajak kartinasi uchun vertikal (eniga nisbatan bo'yi baland), kvadrat (teng tomonli to'g'ri burchak) yoki ufq (bo'yiga nisbatan eni kattaroq) formatni tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi (89-r.).

To'g'ri burchakli format, gorizontal yo'nalishdagi harakat voqeligini tasvirlashda qulayroq deb qaraladi (90-r.).

Haddan tashqari vertikal yo'nalishi bo'yicha cho'zilgan kartina tasvirlash o'rama deb ataladi (91-r.).

89.

90.

91.

92.

Gorizontal yo'nalishi bo'yicha cho'zilgan format, kompozitsiyani panoramali yoki friz qilib ishlashga undaydi (92-r.).

Kompozitsiyani formatga joylashtirishda asosiy syujet ko'rinishlarini, gorizontal yoki vertikalligi va ko'rinishlar harakati chapdan o'nggami yoki boshqa yo'nalishda ekanligini inobatga olish lozim.

Kvadrat formatni muvozanatli va an'anaviy kompozitsiya uchun qo'llash mumkin. U markaz o'qidan xayoliy bir masofada va tasvirning chegara tomonlari bilan ham bir masofada joylashadi (94-r.).

Oval shaklidagi kompozitsiya asari markaz o'qiga nisbatan o'zaro perpendikulyar bo'lgan xayoliy, faraz etgan holda quriladi. Bu yerda yuqori va pastdagi tasvirlar aniqlik bilan ishlanishi kerak.

Oval va aylana formati ko'pincha tashqi qiyofa hamda odam yuzining oval chiziqlari ko'rinishiga bog'liqligi tufayli unga ko'proq portret tasvirlarini ishlash tavsiya etiladi (93-r., 96-r.).

Rassom mukammal formatlardan, masalan turli geometrik shakllarga ega, markazidan tashkil topgan yarim doira va to'g'ri burchak yuzalarga ega bo'lgan matolardan foydalanishi mumkin (95-r.).

93.

94.

92. A.Karimov. «Orzu».
93. F.Rokotov. «Ko'k lentali noma'lum ayol», portreti.
94. N.Shoabdurahimov. «Bulbul sayragan kecha».

95.

96.

97.

95. Leonardo da Vinchi. «Madonna gul bilan».
96. I.Qilichev. «Baxt».
97. K.P.Bryullov. «Tog'dagi ovchilar».

Kompozitsiyaning homaki qoralamalarida umumiy joylashuv qurilmasi va dinamik harakatda bo'lgan asosiy ko'rinishlar ustida ishlagan holda ikkinchi darajali qismlarga deyarli e'tibor berilmaydi (97-r.).

Ma'lum bosqichda balki, homaki qoralamalarning tus va rang yechimlarini topish zarur bo'lib qolar. Bunday holda oldin kompozitsiyaning chizmatasviri, keyinchalik esa rang yoki grafikasi ustida ishlash mumkin.

Ish jarayonining qiziqarli bosqichlaridan biri- bu naturadan bo'lg'uvchi kartina uchun tasviriy ashyolar chizishdir. Rassom atrof-muhitni kuzatib o'rganar ekan, mavzusi uchun kerakli bo'lgan qiziqarli, shu bilan birga o'ziga xos voqealarni, ayniqsa, xarakterli xususiyatga ega bo'lgan xodisalarni material sifatida to'plash bilan birga uyda, ko'chada naturadan xomaki qoralamalar chizadi. Mavzu tanlangandan so'ng darxol naturadan materiallar chizib kompozitsiya yechimi ustida ish olib boriladi. Xomaki qoralamalarni kompozitsiyaga kiritishda biror natijaga erishish qiyin bo'layotgan bo'lsa yoki biror qism tasviri chiqmayotgan bo'lsa, bu ko'rinishlarni naturadan yana qaytadan etyudlar qilib material to'planadi. Tayyorlangan homaki qoralamalar, etyudlar va shu kabi materiallar asosida

a.

b.

v.

g.

98. P.Shobaratov. Kompozitsiyada chizmatasvirdan ishlash tuzilmasi.

yangi kompozitsiya tuzish paytida, albatta, fikran kompozitsiya g'oyasi va yechimlari haqida ham o'ylab ish yuritish foydadan holi bo'lmaydi.

Takrorlab o'tilgan bosqichlar kompozitsiya yaratishda ayniqsa o'quv mashg'ulotlarida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Rassomlar turli yo'nalishlarda ijod qiladilar. Ba'zilar o'z kartinasida qism ko'rinishlarini yaratishda xomaki qoralamalar ustida e'tibor bilan ishlashsa, boshqalari xomaki qoralamalarsiz to'g'ridan-to'g'ri toza matoda tasvirni rang tuslarda kichik yoki katta dog'lar bilan boshlaydilar. Kimdir o'z kartinasi uchun kerak bo'lgan ko'rinishlarni naturadan qidiradi. Turli tabiat manzarasi holatlarini, kerakli libos holatlarini hamda zarur bo'lgan tarixiy materiallarni to'playdi va o'qib tanishadi. Boshqa bir rassom esa o'zining sezish, his etish qobiliyatiga tayangan holda naturadan ishlashni mutlaqo inkor etadi. Kompozitsiya ustida ishlash haqida aytilgan qonun-qoidalarni doimiy bajarish uchun qurol deb qabul qilish shart emas. Shu bilan birga kompozitsiya yaratishda qonun-qoidalar va usullarga amal qilish ham bo'lg'uvsi rassom mahoratini yuqori natijalarga olib borishga qodir. Keling, bir necha natyurmort kompozitsiyalarini ko'rib chiqaylik. Bir jism haqida turlicha fikr bildirish mumkin, uni birinchi planda yoki o'rta planda va uzoq planlarda mayda yoki yirik qilib tasvirlash mumkin.

Kompozitsiyada rassom g'oyasi uchun xizmat qiluvchi va ishtirok etuvchi narsa va buyumlarning katta-kichikligi, soni va planlar tuzilmalari qog'ozda belgilab olinadi (99-r.).

Natyurmortlar joylashgan formatlar bir xil bo'lishiga qaramasdan fikrlar turlicha bo'ladi. Chunki bu chizmatasvirlarning har biri o'zining aniq tuzilmasiga egadir. Turli shakllar, simmetrik asoslar jismlar muvozanatlarini, mustahkam o'rin olgan harakatsizliklarni bildirib

a.



b.

v.

g.



d.

e.

99.

turadi. Jismlarning asimmetrik va diogonal joylashtirilishi kompozitsiyaning bir qismida harakatni tashvishli havotirlanishni va muvozanatsizlikni ko'rsatadi. Kompozitsiyaning bunga o'xshash tuzilmalari qurilmasi yagona emasligini ijodiy ish jarayonida nazarda tutmoq kerak. Rassom asar yaratish uchun tuzilmani tanlar ekan, u kartinani qanday badiiy yechim bilan tugatmoqchi ekanligini oldindan o'ylab olishi kerak. Natyurmortda shakllar doimo shu tarzda tuzilmog'i va joylashtirilishi shart degan fikrdan uzoqroq bo'lish lozim. Kutilmagan holatlarda ajoyib kompozitsion yechimlar chiqib qolishi mumkin. Masalan, savatdagi olmalar to'satdan to'kilib ketdi yoki ovqatlanish stoli yig'ishtirilmay qoldi, yana bir hol, rassom ijod qilish maqsadida ish qurollarini yoyib qo'ydi. Aktrisa upa-eliklarini yig'ishtirishni esdan chiqardi. Dunyoni qurshab olgan barcha jismlar yaxshi natyurmortlar qo'yishga asos bo'la oladi.

Oddiy jism va narsalarda go'zallikni ko'ra bilish rassomning fikr-g'oyalarini o'stiradi va kompozitsiyasini mukammallashtiradi (100-r.).

99. A.Demayeva. Natyurmortda jismlarning kompozitsion joylashtirilishiga misollar .

100.

100. T.F.Narimonbekov.
«Dala shiyponida».

101. Z.Islomshikov.
Apelsin va atir gullar.
Go'zallik va ko'p qirrali shakllar hamda jismlar dunyosi panoramasi.

102. Panoramadan bir ko'rinish.
Baget-rom bilan bezatilgan.

Va nihoyat, o'zimiz natyurmort qo'yishga harakat qilib ko'ramiz. Buning uchun likopcha, ikkita olma, anor, bodring, pichoqlarni olamiz (103-r.). Ko'plab kompozitsiya qurish variantlari mavjud. To'plagan mevalarni stolga shunday joylashtirishimiz kerakki, ular bir-birlarini batamom to'sib qo'ymasin (103a-r.). Aks holda bunday kompozitsiyaning ko'rinishi bir xil bo'lib qolgani uchun zerikarli ko'rinadi. Mevalarni bir joyga yig'amiz. Qo'yilgan mevalar anchagina

101.

102.

103.

a.

b.

v.

g.

O.Muinov.

103. Natyurmort kompozitsiyasining variantlari.

104. Kompozitsiya qurilmalarini jozibali qilib ko'rsatish.

ma'noli va ifodali ko'rinishga ega bo'ldi, lekin bodring, olma va pichoq markaz tomonga bir xil yo'naltirilgan. Keyingi variantda yana mevalar markazga yig'ildi (103b-r.). Bodring va pichoq stol qirg'og'iga nisbatan parallel holda, ammo bu variant ham yetarli darajada ma'noli va ifodali yechimini topmadi. Fikrimizcha kompozitsiya, qiziqarli ifodalangan ritm chiziqlarining hamda shakllarning turli xilligiga erishilganligidadir (103g-r.). Stol tekisligida mevalar chiroyli joylashgan va jonli ranglar guruhini tashkil etib, bir-biriga nisbatan muvozanat saqlagan.

Hatto, bir kompozitsiyaning o'zida turli holatlarni jozibali qilib belgilash va (104-r.) har doim yangi obrazni ifodalashga erishish mumkin.

a.



b.



v.



g.



104.

Agar ifodali kompozitsiya qidirish maqsadida qo'yilgan natyurmortga turli nuqtalardan qaraganimizda shuni sezamizki, qarash nuqtasining o'zgartirilishi natyurmort obrazini yaratishda yordam berar ekan.

a.

b.

v.

g.

105.

d.

105. M.Irgashev. Natyurmortning turli nuqtalardan ko'rinishi.

Natyurmort kompozitsiyasida ko'rish, sezish, his etishni shunday o'rganib olingki, unda siz jismlar chizig'ini shakllar to'plamini umumiy, yaxlit ko'rish malakasini o'zlashtirib oling. Umumiy ichidagi har bir shaklni alohida ko'rinishidan voz kechish lozim. Bu sizga qog'ozda natyurmort kompozitsiyasini aniq va to'g'ri joylashtirishga, natyurmortlarni umumiy ko'ra olishga erishishda qo'l keladi (106-r.).

Eslab ko'ring, bolaligingizda alohida kubiklardan ajoyib va turli ertak qahramonlari haqida kartinalar yaratgansiz.

106. Chizmatasvir. Natyurmort.

106.

«Shifrlangan kubiklar» Kompozitsiya o'yini

Kompozitsiyani yaratilishini shu jarayon bilan tenglashtirish va tasavvur qilib ko'rish, har bir kubik kompozitsiyaning ifodalash yo'nalishlaridan birini ko'rsatuvchi imkoniyatlardandir.

Kelinglar, shu jarayon bilan o'yinlar o'ynaymiz, ushbu vositalar orqali badiiy ifodaviylikni ko'rsatishga harakat qilamiz.

Ushbu kartinani o'zimiz o'ylab topgan ramzlardan foydalanib topishga intilamiz, natijada nima hosil bo'lganligini guvohi bo'lamiz (108-r.).

107. Rasmlar uchun shartli belgilar.

108. (a,b) A.Mahkamov. «Ota vasiyati» O'zbek xalq ertagiga ishlangan rasm.



107.

108.

109.



110.

110. Kompozitsiya vositalari
Bu vositalarning har biri mustaqil mazmunga egadirlar. Ular kartinada badiiy g'oya, fikr va ifodaviylikni ko'rsatishda tomoshabinlar nigohiga tushunarli qilib berishda yordam qiladi.

Yodda tutingki, kompozitsiya qismlari va o'yinlarini belgilash uchungina emas, balki san'at asarlari yaratishda o'z kompozitsiyalarimizni muhokama qilib, tahlil etishni o'rganish maqsadida maxsus belgi va ramzlarni ishlab chiqiladi.

Turli ashyolar va tabiat shakllaridan kompozitsiya tuzish

Noan'anaviy ashyolardan badiiy asar yaratish uchun tugma, tangalar, arqon, nishonlar hamda tabiat ashyolaridan chig'anoqlar, novdalar, gullar, toshlar, hashak va shu kabilarni olib ilhomlangan holda mazmunan qiziqarli mavzu ustida ijod qilishni boshlaymiz. Ajoyib kompozitsiyani faqatgina qalam, mo'yqalam yoki bo'yoqlar vositasida yaratish mumkin bo'libgina qolmay, balki noan'anaviy ashyolarni biriktirish yo'llari bilan ham kompozitsiya tuzish mumkin. Rassom kompozitsiya yaratishda tabiat qurshovidagi shakl va ranglardan jonli va jonsiz tabiat ashyolaridan o'z kompozitsiyasini yaratishda foydalanishi mumkin. G'oyangiz to'g'risida fikr yuriting va bir necha kompozitsiyalar tuzishga harakat qilib ko'ring.

Kompozitsiyada simmetrik va asimmetrik turli shakllarni ma'noli va jonli qilib ifodalashni, kompozitsion markazni belgilash yo'llarini hamda ritm yordami bilan ular ta'sirchanligini oshirishni yodda tutmoq zarur.

Sizga maqbul bo'lgan kompozitsiyadagi shakl va jismlar joylashuvini maxsus yelim (PVA, moment, superyelim va boshqalari bilan) qattiq asosga (karton, matoli kartonda, orgalit, faner va h.) yelimlab yopishtiriladi. Bunday yechim bilan ishlangan kompozitsiya maktabni, uyni bezash hamda uzoq yaqin qarindosh va do'stlaringizga sovg'a bo'lishi ham mumkin.

111. D.Qodirova. Rangli qog'ozlar qirqimidan natyurmort kompozitsiyasini tuzish.



a.

112.

a.

113.

112. E.Garin. Chig'anoqdan ishlangan kompozitsiya va undan qism ko'rinish.

113. U.Tojiboyev. Somondan ishlangan namoyon kompozitsiyasi va undan qism ko'rinish.

114.



Turli xil ashyolardan foydalanib mashqlarni bajarishga o'ting.

Amaliy mashqlar murakkabligini inobatga olgan holda tafakkurni shakllantirishda shunday mashqlarni tanlash kerakki, ular oson va tezkorlik bilan aqliy chiniqishni oshirishda yordam bersin. Badiiy bezalgan shakllarni tasvirlash bilan soddalikdan murakkablikka o'tish lozim. Ijod sirlarini o'zlashtirishda avvalo oddiy shakl ko'rinishlari ustida, asta-sekinlik bilan murakkabroq jism shakl ko'rinishlari ustida ishlashga o'tish tavsiya etiladi.

1-mashq. Qog'ozdan bir ritmli bo'rtma naqshlar yaratish.

a) 5x30 sm qog'ozni, bukish, qimtish yo'li bilan;

b) shuningdek qog'ozni kesib bukish asosida.

2-mashq. «a» va «b» usullaridan foydalanib markaziy naqsh kompozitsiyasini amalga oshirish (8-20 sm diametrli shakl).

3-mashq. Yuqoridagi mashqlardan kelib chiqqan holda yuzada markazlashgan kompozitsiya yaratish.

4-mashq. O'sha uslub va qoidalar asosida keng maydonda kub, ko'p qirrali shakl - piramida kompozitsiyasini 5x8x15 sm da yaratish.

5-mashq. Bu mashqlar amalda qadoqlash tizimida foydalanishni inobatga olib o'tkaziladi. Tayyor suratni o'ramlardan foydalanib sovun, shirinliklar solish uchun qog'oz va kartondan 5x15, 20x30 sm hajmda turli shakllar va qadoqlash qutichalari yaratish.

O'quvchilarning saboq olish jarayonlarida tasviriy san'at imlosi va kompozitsion shakllanish uslublarini o'zlashtirish qobiliyatiga ko'ra vazifalar murakkablashtirib boriladi. O'quvchilar ishlash uchun zarur bo'lgan qog'oz, karton, polietelen, atseton folgasi, oyna, yog'och va zamonaviy ashyolar bilan tanishtirib boriladi.

Kompozitsiya xususiyatlari majmui bilan tanishish amaliy mashg'ulot jarayonida turkum mashqlarni amalga oshirish orqali o'zlashtiriladi. Har bir mashq berilgan mavzuga aloqador kompozitsion shakl, ko'rinish vazifalarini bajarish bilan yakunlanadi.

115.

Dizayn

«Dizayn» - ingilizcha design so'zidan olingan bo'lib, loyihalash, chizish, o'ylab topish hamda loyiha, reja, rasm ma'nolarini bildiradi. «Dizayn» iborasi buyumlar dunyosini loyihalash bilan bog'liq bo'lgan yangi faoliyat turini bildiradi. XX asrning boshlarida jismlar muxiti vizual va funktsional sifatlarining stixiyali ravishda shakllanishini ilmiy - badiiy yo'lga solish zaruriyati tug'ildi. Shu tufayli «Dizayn» alohida faoliyat turi sifatida vujudga keldi va rivojlana boshladi.

Hozirgi kunda «Dizayn» jamiyatning murakkab yashash jarayoniga mos keluvchi buyumlar muxitining maqsadga muvofiq keladigan na'munalarini yaratish bilan shug'ullanadi. Ba'zan «Dizayn» deganda uning ayrim bir sohasi, masalan: sanoat buyumlarining estetik xossalarini loyihalashnigina tushuniladi. Lekin «Dizayn» ishlab chiqarishning funktsiya ko'rsatishi, iste'mol, buyumlar muxitida odamlarning yashash bilan bog'liq bo'lgan ancha keng ijtimoiy - texnik hamda estetik muammolarini hal etadi.

«Dizayn» iborasi badiiy loyihalash faoliyatining natijasini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan «buyumlar dizayni», «avtomobillar dizayni», «liboslar dizayni» va boshqalar.

«Dizayn» hozirgi kunda Respublikamizda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Shuning uchun badiiy loyixalash mashg'ulotlari aniq bir tushunchalar, qobiliyatni shakllantirishi kerak:

1. Yaxlitlikni xis etish;
2. Baholash qobiliyati;
3. Jismoniy mutanosibligi;
4. Ishlab chiqarilgan maxsulotning chidamliligi;
5. Axborotbopligi;
6. Emotsional jozibadorligi;
7. Tijorat yorqinligi, ta'sirchanligi;
8. Foydalanishda qulayligi, afzalligi;
9. Iqtisod tejamkorligi;
10. Tashviqot ta'sirchanligi;
11. Texnologik qulayligi.

Bularni o'rganish dizaynerchi rassomning loyihalashda ishlashni ancha yengillashtiradi va chizmalarni tayyorlashda qo'l keladi.

116. «Sanoat dizayni» ixtisosligi. J.Mahmudov «Ko'p funktsiyali talabalar stoli» loyihasi.

a.

b.

v.

g.

Ishlab chiqilgan stol talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u bir nechta - stol, yozuv stoli va stul bilan molbert funktsiyalarini bajarishi mumkin.





117.

117. Sh.Xojimetov.
«Dazmol dizayni» loyihasi.

Ushbu loyihadan maqsad dizaynerchi rassomlarni bionik shakllardan foydalangan holda uy-ro'zg'or buyumlari, jumladan dazmol shaklini yaratishga o'rgatishdir.

118. A.Demayeva, B.To'rayev
Respublika Dizayn kollejiga ishlangan ramz.

Dizaynerchi rassomlarni bionik shakllardan foydalangan holda yengil avtomobil ishlab chiqarish sohasida jumladan avtomobil shaklini loyihalashga o'rgatishdir.

119. O.Rahimov.K.Behzod nomli Milliy Rassomlik va Dizayn Instituti talabasi sanoat dizayni loyihasi.

119b.

119a.

120. Arxitektor Q.Muhamedjonov. Toshkent Shayxontoxur tumani Shayx Zayniddin Bobo Jome masjidi. Maket qog'oz (xromerzats) dan ishlangan.

120.

121. Arxitektorlar: A.Turdiyev, K.Muhamedjonov. Samarqand. Chelak tumani. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy majmuasining maketi.

122. Arxitektor Q.Muhamedjonov. Navoiy shahri Jome masjidini perspektiv ko'rinish loyihasi.

Masjid binosi shahar markazida joylashganligi hamda turli tomondan ko'rinishi lozimligi hisobga olinib uni shakli sakkiz burchakli qilib loyihalangan.

Masjid binosi 2 qavatli bo'lib, bir vaqtda 1000 ta odam sig'ishi mumkin.

Masjid binosi shakliy me'morchilik an'analari va usullaridan foydalanilgan holda shakllantirildi.



121.

122.

Amaliy topshiriqlar

X.Aminov. «Mening oilam» (guash)

1. Chizmatasvir qismlarini qalam bilan bajarish hamda yorug'-soyalarni ranglar bilan ishlash.

2. Kompozitsiyaning asosiy rang dog'larini ilk bor och qorishmada ranglab chiqish.

3. Ish jarayonini davom ettirish va tuslar munosabatlarini aniqlash.

4. Qismlar ustida ishlash va umumlashtirgan holda ishni tugatish.

1. Chizmatasvirni nozik chiziq bilan qalamda ishlash. Qomatlarini, kompozitsion joylashuvlarini va harakat dinamikasini berib tasvirlash.

2. Tus va qomatlarda asosiy ranglar dog'ini och qorishmada ranglab chiqing. Tus va ranglar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qiling.

3. Tugatishdan oldin qismlarga nozik quruq mo'yqalam bilan ishlov berib chiqiladi.

N.Husanov. «Chavg'on o'yini».

4. Qismlar ustida ishlashni davom ettiring va ularni umumlashtirib tugating. Ishtirok etayotgan inson qomatlari o'rtasidagi mutanosiblikni va ular harakterlarini berishga urinib ko'ring.

«Zumrad va Qimmat» ertagiga rasm ishlash

1. Kompozitsiya chizmatasvirini qalamda ishlash.

2. Asosiy rang dog'ini va ko'rinishlar tusini sovuq yoki iliq koloritlarning och qorishmasi bilan ranglab chiqish.

3. Ishlash jarayonini davom ettirib, tus va ranglar orasidagi munosabatlarni aniqlash. Kompozitsiya markazida bo'lib o'tayotgan voqeani alohida ko'rsatish.

N.Husanov. «Zumrad va Qimmat» ertagiga rasm ishlash.

4. Qismlarni guash bo'yoqlari yordamida bajarish va umumlashtirgan holda ishni tugatish.

Shahar ritmlari
panno qoralamasi (dekorativ kompozitsiya, guash)



1. Chizmatasvirni qalamda bajarish. Kompozitsiyaning umumiy joylashuvini va ko'rinishlarini chiziqlar bilan aniq ishlab chiqish.



2. Asosiy ranglar dog'ini va tusini iliq yoki sovuq ranglar berib ilk bor ranglab chiqish.

3. Qismlarni aniqlash, umumlashtirish va tugatish.

1. Chizmatasvir qismlarini qalam bilan bajarish hamda yorug'-soyalarni ranglar bilan ishlash.

2. Kompozitsiyaning asosiy rang dog'larini ilk bor och qorishmada ranglab chiqish.

N.Ziyaxanova.
Erkin mavzu.

3. Ish jarayonini davom ettirish va tuslar munosabatlarini aniqlash. Qismlar ustida ishlash va umumlashtirgan holda ishni tugatish.

Folklor bayrami (erkin ranglar)

1. Aniq chizmatasvirni qalamda ishlab chiqish.

2. Asosiy ranglar dog'ini va ko'rinishlar tusini ilk bor guash ranglari qorishmasi bilan ranglab chiqish.

3. Qismlar ustida ishlash va umumlashtirish.

E.Aralov. «Boysun» etnografik falklor ansambli.

4. Ishlash jarayonini davom ettirib, tus va ranglar orasidagi munosabatlarni aniqlash, kompozitsiya markazida bo'lib o'tayotgan voqeani alohida ko'rsatish.

Kuy
Xomaki qoralama (guash).

1.

2.

P.Shobaratov. «Kuy».

3.

1. Kompozitsiya chizmatasvirini qalamda aniq va umumlashtirilgan holda tasvirlash.

Vitraj kompozitsiyasi uchun shakllar tushunarli, aniq va umumlashtirilgan, hamda ortiqcha bo'laklarsiz bo'lmog'i lozim. Chunki xomaki qoralamada vitrajning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, hamda chizmatasvirning umumiy shakllari katta bo'lmagan bo'laklarga bo'linishi, rangli oynalarni tanlashda qulayliklar yaratadi.

2. Asosiy fon dog'ini ranglar bilan ishlashda yorug' ranglardan foydalanish tavsiya etiladi. Ranglarning och-to'q hamda bir-biriga qarama-qarshi rang tuslaridan foydalanib kompozitsiya ijro yo'nalishida yaxlitlik garmoniyasiga erishish, ranglarning bir-biriga mosligini ta'minlash. Albatta tartibsiz bo'yashlardan ehtiyot bo'lish. Bu topshiriqlarni bajarilishida sizga ranglar doirasi yordam beradi.

3. Kompozitsiyani tugatishda qora chiziqlarni tush, pero, mo'yqalam bilan yoki guash va qalin flomaster bilan chizib chiqish mumkin. Vitraj xomaki qoralamasida, kompozitsiyaning ranglar orqali umumiy tushunchasi tasvirlanadi.

A.Aliqulov. «Uloq». Ko'p qomatli kompozitsiya ishlash jarayonlari.

1. Ko'p qomatli kompozitsiya ustida ishlashdan oldin tanlangan mavzu uchun kerakli ma'lumotlar yig'ish, hamda kartina uchun xomaki qoralamalar ishlash kerak bo'ladi. Mavzu har tomonlama badiiy g'oya-fikr va ifodaviylikni tushunarli yechimini topishga erishish lozim.

2. Ko'p qomatli kompozitsiyani chizmatasvirni ishlang keyin kuzating, kompozitsiya qismlarini muvozanatlik va umumiylikka erishish uchun e'tiborni qarating.

3. Qomatlarni tus va asosiy rang dog'lari bilan ilk bor bo'yab chiqing.

4. Jarayonlarni davom ettirib, tus va ranglar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlang.

5. Qismlar ustida ishlash, ularni umumlashtirish va tugatish, ishtirokchi inson qomatlari o'rtasidagi bog'liqni va xarakatlarni berishga urinib ko'ring.

Quyidagi she'rlarni o'qing va o'zingizga ma'qulini tanlab, ularga illyustratsiyalar ishlang. Yodda tutingki, och-to'q ranglarning bir-biriga qarama-qarshiligi, dog', chiziqlarning realistik va abstraktli kompozitsiyada yechim imkoniyatlarini unutmang.

Poeziyada obrazlar yechimini assotsiatsiya va sintez orqali topish mumkin. Quyidagi she'rlarda rasmlarning badiiy yechimini o'zingiz tanlang.

Amirqul Po'lkanov

Istak

Bobom tengsiz edi ertak bobida,
Rom qilib qo'yardi gapirib turib.
Ketib qolar edim uzoq-uzoqlarga,
Uchar gilamlarda o'tirib.

Chambilu Qo'hiqof, bog'i Eramga,
Go'ro'g'li yurtiga borib qaytardim.
Oshiq bo'lib Barchin latofatiga,
Alpomish kuchiga tahsin aytardim.

Juda o'xshash ekan ertak va olam,
Ijobat toparkan inson matlabi.
Shundan beri men ham ancha ulg'aydim,
Botir yigit bo'ldim Alpomish kabi.

Yulduzga uchaman endi istasam,
Hohlasam o't chiqar zamin qa'ridan.
Lekin bir muddao tinchimni buzar,
Bir istak zo'r chiqar doim baridan.

Qo'limdan tutgancha shoshirar hayot,
Men ham g'irotimni mudom qistayman.
Ammo hamon o'sha-bobom aytib bergan
Uchar gilamlarda uchmoq istayman.

1972 yil

Gulchehra Jo'rayeva

Feruzga

Katta maydon. Bolalar o'ynar...
Orzu, quvonch bunda bir dunyo.
Bog'cha qurib biri qum uyar,
Biri uyga g'isht quyar go'yo.

Parvo etmay ularga o'g'lim
Ko'tarilar zinama-zina.
Xavotirdan bezovta ko'nglim,
U-chi, olg'a bosar jimgina.

«Katta»lardan aslo qolmaydi,
ishonch bilan qo'yadi qadam.
Pastdan deyman: «Qayt ortga, bolam»,
Qulog'iga so'zim olmaydi.

Terga botib chiqdi, tushmagur,
«Qarang oyi», deb kular mayin,
Yuragimda ortadi g'urur-
Menga mayin boqqani sayin.

1968 yil

Rauf Tolipov

ODAM VA OLAM

Ulkan olam oldida
Kichik nuqtadir odam.
Lekin uning oldida
Bugun tiz cho'kdi olam.
Endi bizlarga ayon
Olamning tabiati.
Ammo jumboqdir hamon
Odamning tabiati.
Chunki inson yuragi
Ochilmagan bir olam.
Bilsang orzu, tilagi
Yechilmagan bir olam.
Inson qalbi keng shudoq
Bo'lar ming-ming olam jo.
Odam olamin ko'rmoq
Oson emasdir ammo.
Tabiatda, olamda
Bo'lsa to'rt fasl agar,
Bir kunda-chi, odamda
Ming xil holat ro'y berar.
Bo'y egdi bizga osmon,
Urinsak hamki, biroq-
Emas bunchalik oson
Odam qalbin zabt etmoq.
Insondagi kuch-qudrat
Kimni qoldirmas hayron.
Yangi bir dunyo ochar
Har bir qadamda inson.

Rauf Tolipov

QO'LLAR

Bo'lmasa shu qo'l axir
dunyo edi cho'l, taqir.
Qo'limiz eng avvalo
Mehnatdan bo'lgan
paydo.
Chizma-chiziq va qadoq
Qo'limizda besh
barmoq-
Besh qit'ani zabt etgan
Muz tog'larin eritgan.
Olam inson kaftida,
Quyosh bor qo'l taftida.
Ummoncha bor qudrati
Bo'roncha harakati.
Tarixlarni yozgan qo'l
Daryo, kanal qazgan qo'l.
Cho'lni bo'ston etib qo'l,
Qo'l emas u bo'ldi gul.
Olam-qo'lning ijodi
Qo'l-odamning qanoti.
Raketa yasab shu qo'l
Fazolarga ochdi yo'l.
Ha, ijodkor bu qo'llar,
Insonning baxtin
qo'llar.
Dushman boshiga ammo
Bu qo'l bombadir hatto.
Tinchlikka qo'ygan imzo,
Er tinch bo'lsin doimo.

Barot Boyqobilov

AFINA MANZARALARI

Uch tomoni baland tog',
Bir-biriga payvand tog',
Afinaga roz aytar
Uch botirga monand tog'.

Tog'lar aro Afina
Qo'liga qo'yib xina,
Cho'qqilarga yolvorar,
Tosh otma, deb ko'ksima.

Cho'qqilardan jilg'alar
Chuldirashib, jilvagar,
Afina qulog'iga
Taqar kumush sirg'alar.

Tog' bag'ridan o'rmonlar,
Toshga bitib dostonlar.
Qulamangiz zinhor deb,
Ko'ksin etar qalqonlar.

Qoya uzra Akropol
Quyoshdan kutib iqbol,
Oyog'iga bosh urgan
Afinadan so'rar hol.

Afina der: shuhrating,
Tog'day sobit qudrating,
Menmas, butun dunyoni
Lol ayladi san'ating.

Sening qoshingda qadim
Haykalim bordi manim.
Menday ma'buda birlan
Faxr etardi vatanim.

Shuning uchun Yunonga,
Qo'histonli bo'stonga,
El qo'ydi manim otim,
Dovrug' sol, deb jahonga!

Uch tomoni baland tog',
Bir-biriga payvand tog',
Afinaga roz aytar
Uch botirga monand tog'!

1976 yil

Savollar, mashqlar va ijodiy topshiriqlar

1. Kompozitsiyani o'z so'zlaringiz bilan ta'riflang. Kompozitsiyaning tasviriy san'atda tutgan o'rni haqida gapirib bering.
2. Qadimda bo'lib o'tgan voqealar kartinada qanday tasviriy vositalar orqali beriladi?
3. Bezak mavzuli kompozitsiya xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. Rassom obraz ma'nodorligiga erishish uchun qanday kompozitsiya usullaridan foydalanadi? Ularga qisqacha tavsif bering.
5. Kartinada harakat va harakatsizlik holatini berish uchun kompozitsiyaga yordam beruvchi qoidalar haqida gapirib bering.
6. Oltin kesishuv qoidasi kartinada tasvirning qanday muhim jihatini berishga yordamlashadi?
7. Kompozitsiyaning asosiy vositalarini aytib bering.
8. O'zingiz yoqtirgan suratlarda kontrastdan foydalanilganini ko'rsating, bu vosita imkoniyatlari haqida so'zlab bering.
9. Kompozitsiya yaxlitligiga erishish mumkin bo'lgan vositalar haqida gapiring. Shu nuqtai nazardan A.Aliqulov «Amir Temur Dunyo tarixida» (124-r.), B.Sherbakov «Momoqaldiroq uyurmalari» (123-r.) kartinalarini tahlil qiling.

123.

124.

10. Ohangi tez, sekin, musiqaviy, shovqinli, quvnoq, sokin, qat'iy, qattiq va h.k. bo'lgan turli kompozitsiyalar tuzish bo'yicha mashqlar bajaring.
11. Yorqin ohangga ega bo'lgan (avvalgi mashqlar xomaki qoralamalardan biri bo'yicha) turli to'qimachilik ashyolaridan (ip, arqon, bog'lam, to'qima va boshqalardan.) iborat bezakli kompozitsiya tuzing.

123. B.Sherbakov. «Momaqaldiroq uyurmalari».

124. A.Aliqulov. «Amir Temur dunyo tarixida», ko'rinish.

125.

127.

12. O.Qozoqovning «Natyurmortiga» (125-r.) va N.Jo'rayevning «Shishalar» natyurmortiga (127-r), T.F.Narimonbekovning «Dala shiyponida» (100-r.) asarlaridagi ashyolar guruhi konturini avval ko'zingiz, so'ng qo'lingiz bilan chizib chiqing. Bu kartinalar kompozitsiyaning qanday qonun va qoidalariga ko'ra tuzilganligini belgilang.

126.

128.

125. O.Qozoqov. «Natyurmort».
126. F.Shedrin. «Yangi Rim». «Parishta Avliyo qasri».
127. N.Jo'rayev. «Natyurmort».
128. G.Metsyu. «Musiqa darsi».

13. Quyidagi kartinalarni ko'zdan kechiring, ularning kompozitsion qurilmalarini aniqlang: N.Jo'rayevning «Shishalar natyurmorti» (127-r.), F.Shedrin «Yangi Rim». «Parishta Avliyo qasri» (126-r.), G.Metsyu «Musiqa darsi» (128-r.), N.Shoabdurahimov «Bulbul sayragan kecha» (94-r.).

129. B.Alixanov, Sh.Baxretdinov. «Natyurmort».

129.



130.

131. K.Bryullov. «Pompeyning so'nggi kuni». Ko'rinish.

14. Rasmlarni solishtiring (130-r.) va qay birida harakat ko'proq sezilmoqda va bu nimalarda ko'rinadi?
15. K.Bryullovning «Pompeyning so'nggi kuni» asarida yuqoridagi haykallarning qulash tezligi oshayotganligi seziladi (131-r.). Buning siri nimada va rassom qanday vositalardan foydalangan?
16. Ikkita suratdan iborat real yoki abstrakt kompozitsiya ishlang. Ulardan birida sokin ohang, osoyishtaliklarni, to'garak chiziqlar bilan yengil harakatini ifodalang. Ikkinchisida o'zaro kesishgan shakllar, siniq va nomuqobil chiziqlarga asoslangan qat'iy harakatlarni tasvirlang.
17. Bir varaq qog'ozga, chiziqlari kesishmaydigan qilib qush, baliq, fil, gul, barg, odamlarni tasvirlang. Ularni kayfiyatingizga qarab qarama-qarshi va o'zaro ranglar yordamida bo'yab chiqing.
18. Kompozitsiya markazini belgilashning turli usullaridan foydalanib (qismlarning quyuqlashuvi va yengil bo'yalishi, ranglar qarma-qarshiligi, quyuq rangga tus jihatidan o'tish) bir qator mashqlar bajaring.

132. R.Xoliqov. «Dorbozlar».

132.

19. Turli badiiy ashyolardan «Musiqa ohanglari», «Harakat», «Osoyishtalik», «Xayolot» mavzularida xayoliy kompozitsiyalar ishlang.
20. Kompozitsiyaning biror lavhasini kattalashtirish usulidan foydalanib, turli shakllardan iborat mashqlar bajaring.
21. Chiziqlar, dog'lar, soyalar quyuqlashadigan va rangsizlashadigan mashqlar bajaring.
22. Turli harflar shakllari asosida ohanglari turlicha bo'lgan qarama-qarshi kompozitsiyalar chizing.
23. Ikkita rasmni (133-r.) ko'zdan kechiring, ularni o'zaro solishtiring va umumiy, xususiy tomonlarini solishtiring. Oq va qora tasvirlarni solishtirganingizda, bu rasmlar haqidagi tasavvuringiz qanday o'zgarayotganini so'zlab bering. Badiiy ifodaviylikning qanday vositasi bu yerda asosiy hisoblanadi?

133. O'zbek qo'g'irchoqlari. Pozitiv (a) va negativ (b).

a.

b.

134.

135.

24. Yorqinlik va rang qarama-qarshiligidan foydalanib turli badiiy materiallar yordamida mashqlar bajaring. Qorong'i yuzada yorug'likni, yorug' yuzada qorong'ulikni ifodaviy imkoniyatlari, ranglar mutanosibligi, qarama-qarshiligi va shakllaridan geometrik, xayoliy, tabiiy, bezaklardan iborat kompozitsiya tuzing.
25. Darslikdan o'zingizga yoqqan suratni tanlang, uning belgilardan iborat kompozitsiya vositalarini aniqlang,ular lo'nda va barchaga tushunarli bo'lishiga harakat qiling.
26. G.Mardvinsovaning «Bayramona natyurmorti», M.Yo'ldoshev «Urganch» asarini (134-136-r.) kuzating va quyidagi belgilardan mos kelganini tanlab oling.
27. O'z belgilaringiz bilan I.Shishkin «Kemalar maydoni» (138-r.), Q.Bekjonov «Oltin beshik» asari (139-r.), T.Narimonbekov «Dala ne'matlari» (100-r.) asarlarini belgilashga harakat qiling.
28. Rafaelning «Mariyaning nikohi» (137-r.), T.Karimovning «Do'st» (140-r.), V.Korovinning «Qishda» (67-r.), N.Gening «Xufiya uchrashuv» (141-r.) asarlarini diqqat bilan kuzating va rassomlar qanday vositalar yordamida mavzuli kompozitsiya markazini ko'rsatayotganligini aytib bering.

136.

134. G.Mardvinsova. «Bayramona natyurmort».
135. V.Burmakin. «Boysun madonnasi».
136. M.Yo'ldoshev. «Urganch».
137. Rafael Santi. «Mariyaning nikohi».
138. I.Shishkin. «Kemalar maydoni».
139. K.Bekjonov. «Oltin beshik».
140. T.Karimov. «Do'st».
141. N.Ge. «Xufiya uchrashuv».

139.

137.

140.

138.

141.

142. K.Isoqjonov. «Naqshli olti qirrali stol».

143. Mirzaahmedov. «Geometrik naqsh».

145. A.Qosimov. «Girix va o'simliksimon naqshli sandiq».

29. O'simlik va geometrik shakllardan iborat turlicha bezak kompozitsiyalari ishlang (142-r.). Pochta qog'ozi, jildi, otkritka, parda va boshqa ashyolarni naqshlar bilan bezang. Buning uchun maxsus arqon yoki ipdan maxsus muhr tayyorlash kerak. Kichikroq taxtachaga xohlagan shaklni qalam bilan chizing va unga ip yoki arqon bo'lagini yelimlang. Arqon uchi tarqalib ketmasligi uchun avvaldan ozroq kuydirib qo'yish mumkin. Yelim qurigach, arqonga xohlagan rangni bering va muhrlashga kirishing. Buning uchun muhrni qog'oz yoki matoga qattiq bosing. Har bir bosim chog'ida arqonga rang berib turing. Bunday muhrlarni kartoshka, oyna va boshqa ashyolar yordamida ham tayyorlash mumkin.

30. Xalq amaliy bezak san'ati asarlaridagi (142-r. - 145-r.) kompozitsiya markazini belgilang.

142.



144.

31. Geometrik shakllardan (aylana, uchburchak, to'rtburchak) applikatsiya yasang va kompozitsiya muvofiqligiga erishishga harakat qiling.

143.

145.

146.

148.

147.

146. Sh. Sobirova. Gobelen «Baliqlar» kompozitsiyasi.

147. S.Ziyamov. «Tomosha oshqovoqqa ishlangan miniatyura».

148. F.Rahmatullayev. «Ovchi». Teriga ishlangan kompozitsiya.

32. Betartib «Yulduzli osmon» kompozitsiyasini (mum donalari, suvbo'yoq) chizing.
33. Chig'anoq, tosh, suv o'tlari, novdalar va boshqa ashyolardan «Dengiz qirg'og'i» kompozitsiya ko'rinishlari ishlang, har safar kompozitsiya markazini o'zgartiring. Yuqorida keltirilgan ashyolardan foydalanib avvaldan tayyorlab qo'yilgan romkaga «Qirg'oqdagi qum ustida» kompozitsiyasini bajarish mumkin.
34. Choy servizi chizing va idishlarni kesib oling, turli kompozitsiya variantlarini tuzing, o'zingizga yoqqan kompozitsiyani rangli qog'ozga yopishtiring.
35. Barcha qismlar va bir necha geometrik shakllarni mutanosib ravishda varaq yuzasiga joylashtiring. Shakllar alohida emas balki, bir butunlikda idrok etilishi lozim. Turli qarama-qarshi ranglardan foydalanib bir xildagi ranglar jamlanmasidan kompozitsiya tuzing.
36. Rasmlarni (149-r.) kuzating va ashyolar tasvirlarining qay birida xatoga yo'l qo'yilganligini izohlab bering.

37. Chizmalarni (149-150-r.) kuzating, ular kompozitsiyaning qay usuliga mansubligini belgilang. Bir necha mashqlar bajaring: har bir chizma bo'yicha natyurmort, manzara va bezak kompozitsiyasi chizing.



149.

38. Xohlagan rangtasvir, grafika, xalq amaliy bezak san'ati asarlaridan ko'chirma oling.

39. Bir xildagi shakldan (xayoliy) ikkita kompozitsiya (tartibli va betartib) yarating va fikringizni ifodalang.



150.

40. Kartina yuzasida (ufqsiz va perspektivasiz) erkin ishlash bo'yicha mashqlar bajaring. Bu chiziq, dog', nuqta, geometrik, o'simlik shakllari yoki bezak qismlaridan iborat kompozitsiya bo'lishi mumkin (151-r.).

151.



41. Perspektivadan foydalanib chiziq, dog', nuqta, geometrik va o'simlik qismlaridan iborat kompozitsiya yaratish bo'yicha mashqlar bajaring (152-r.).
42. «Shamol», «Shahar ohanglari», «To'lqin» kompozitsiyalari dinamikasini chizing. Rangtasvir va grafika yo'nalishida suratlar ishlash mumkin.

152.



43. «Poyga», «Otliqlar», «Balandlikka sakrash», «Velosipedchilar» kompozitsiyalari ishlang, harakat va turli badiiy ashyolarni tasvirlash qoidalaridan foydalanishga harakat qiling.
44. Turli rangtasvir va grafika vositalari bilan ma'lum bir kayfiyatda natyurmort qoralamalari turkumi ishlang. Bular tushkunlik, quvnoq, tantanavor, o'ychan, muhim, quvnoq kayfiyatdagi natyurmortlar bo'lishi mumkin.
45. Bir buyum yoki jussa tasvirida (choynak, bino, daraxt, odam, mushuk) mahobatlilik tasavvurini kompozitsiya vositalari orqali ifodalang.
46. Turli kompozitsiyalarda (ufq chizig'i balandligi, ko'rish maydoni, qarash nuqtasi va h.) perspektivani qo'llash bo'yicha mashqlar bajaring. Turli kattalikdagi qog'ozlardan foydalaning.
47. Tegishli siluet tana soyalari qiyib oling va «Futbol», «Suzuvchi», «Yuguruvchi», «Voleybolchi», «Lijachi» va hokazo kompozitsiyalar yarating.
48. «Xafalik», «Qo'rquv», «Xursandchilik», «Bayram», «Notinchlik» kabi umumiy kayfiyatni ifodalovchi kompozitsiyalar mashq qiling.
49. Erkin mavzuda yoki she'riyat bilan bog'lab, turli rangda kompozitsiya yaratish yuzasidan mashqlar bajaring.
50. Kitobga badiiy bezak (muqova, sarlavha, ilova, yo'lak, xulosa, harflar) berish qismlarini kompozitsion joylashtirish bilan bog'liq topshiriqlar bajaring.
51. Turli yozuvlardan iborat kompozitsiya yaratish bo'yicha topshiriqlar bajaring. Bular geometrik shakl, qush, gul, baliq, odam ko'rinishidagi yozuv kompozitsiyalari bo'lishi mumkin.

153. Habibullo Solih. Suratda arabiy yozuv bilan «Xattotlik san'ati asarlari» deb yozilgan.

52. To'rtburchak shaklidagi (Erkaklar va ayollar uchun o'zbek do'pilari va boshqa) naqsh chizing, naqsh joylashtirishning turli kompozitsiya variantlaridan foydalaning (154-r.).



154.

b.

53. O'zbekistonning Qo'qon, Buxoro, Xorazm ustalari naqshlari asosida aylana va kvadrat shaklli naqsh chizing, kompozitsion chizmadan (155-r.) foydalaning. Simmetriya o'qiga nisbatan bezak qismlari joylashuvini kuzating.

54. To'rtburchak shaklidagi gilamlar bezagi qoralamasini chizing, buning uchun geometrik va o'simlik shakllaridan foydalaning, ularni Xorazm gilamchilik san'ati an'analariga ko'ra turli kompozitsiya shakllarida joylashtiring (156-r.).

Har bir chizmaga (152-r.) turli bezaklar ohangini mos keltirish, bundan tashqari bezak erkin joylashgan bo'lishi mumkin. Asimmetrik kompozitsiyada, mutanosibliklar bo'lishi kerakligini yodda tuting.

55. Xalqona usullarda, loydan xomaki qoralamalardan, haykalcha va naqsh yasang (155-r.).
56. Aylana yuzasi bezagi (Qadimgi Yunon, Balxar, Yaponiya sopoli) kompozitsiya asoslarini o'rganib, tayyor mahsulot xomaki qoralamasini va naqshini bajaring.
57. «Qadimgi Yunoniston», «Uyg'onish», «Gotika», «O'zbek madrasasi» mavzularida, mavzuli bezak kompozitsiyasi ishlang (gilam, vitraj, panno xomaki qoralamalari).
58. Davr uslubini aks ettiruvchi naqsh xususiyatlarini (ro'mol, gilam, panno va hokazo xomaki qoralamalar) o'rganib, «Barokko», «Klassitsizm» mavzularida bezakli kompozitsiya ishlang.
59. O'zbek milliy kiyimlaridan uch turini, ya'ni Buxoro, Farg'ona, Xorazm xalqlari ayollar liboslarining ramziy va obrazli ma'nolarini o'rganib ularni tasvirlang.

155. X.Isakjonov, O.Abduvosilov, Mirzaahmedov, Qo'qon, Buxoro, Xorazm, Toshkent maktab naqshlari.

a.

b.



v.

156. Xorazm gilamlari (a, b).
157. Kompozitsiya qurilmalari.
158. V.Surkov. «Choyxonada». Loydan ishlangan badiiy kompozitsiya.



6.



157.

158.

b.

159.



160.

60. Chiziqli va turli bezaklarning turli kompozitsiya shakllaridan foydalanib matolar, kitob, qog'oz o'ramlari va shu kabilarni badiiy bezating. Uyg'un, qarama-qarshi va nozik ranglardan foydalaning (134-137-r.).

61. Chiziq, nuqta va geometrik shakllardan iborat kompozitsiya mashq qiling, tasvirlarning topilgan kompozitsion mutanosibligini saqlagan holda obrazli kompozitsiyaga aylantiring.



161.

161a. 161b.

160. Besh xildagi to'r.

161. To'rli bezak tuzilishiga misollar:

a) shakllar ajratilgan;

b) shakllar birlashtirilgan.

162. G.Alimova. O'zbek ayollarining milliy liboslari uch ko'rinishi.

163. Lentali bezaklarning yetti turi va ularning tuzilishi.

164. Xoshiya xosil qilishda, simmetriyaning yetti turi.

162.



163.



164.



165.

166.

62. Shakl bo'yicha turlicha bo'lgan bezakli kompozitsiya tuzing (harflar, raqam, geometrik shakl, barglar, gullar, kapalaklar, odam, hayvon va hokazo tasvirlar) ularning orasidagi joylar ham shu shakllarni ifodalasin. Bunday kompozitsiya uchun ikki xil qarama-qarshi rangdan va bir necha ranglardan foydalaniladi (166-r.).
63. Faqat ikki rangdan foydalanib «Quvnoqlar» bezakli mavzuli kompozitsiya chizing (panno, gobelen xomaki qoralamasi).
64. Uch rangdan foydalanib «Afsonaviy jonivorlar» bezakli kompozitsiya ishlang (vitraj xomaki qoralamasi).

167.

168.

169.

170.

65. Bir xildagi ashyolardan (ikkita olma, limon, likopcha, pichoq, vaza, sochiq) bir necha natyurmort tuzing va qaysi bir kompozitsiya ma'nodorroq ekanligini ayting.
66. Turli ashyolardan iborat bir necha natyurmort tuzing, kompozitsiyadagi statika va dinamika, muvofiqligi va nomuvofiqlik, simmetriya va asimmetriyani ifodalang.
67. Odamlar, sahna, shaxslar, liboslar, mehnat jarayoni, maishiy sharoit, xonalar, hayvonlar, qushlar va hokazo tasvirlar to'plamini tuzing.
68. «Insonning tug'ilishi». Nuh payg'ambar qissasi. Sulaymon payg'ambar hikoyalari. «Yusuf va Zulayho» qissasi. Iskandar Zulqarnayn haqidagi rivoyatlar. Qadimgi Sharq va Rim afsona va rivoyatlarini tanlab o'qing, ular asosida rasm ishlang. Topshiriqni bajarishda kitob grafikasini shartliligi, kompozitsiya simmetriyasi va asimmetriyasi xususiyatlari va boshqa badiiy ifodaviy vositalarni yodda tuting.
69. Quyidagi haykallarni ko'zdan kechiring (168-r., 169-r.), ularning kompozitsion qurilmalarini va mualiflarini aniqlang hamda ularning ijodiy faoliyati haqida so'zlab bering.

Bolalar galereyasi

O`zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi litsey-internat o'quvchilarining, Xalqaro ko`rik tanlovlarda sovrindor o`rinlarni egallagan ijodiy ishlaridan namunalar.

S.Qodirov. Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi.

K.To'laganov. «Qor bobo bilan tanishuv».
Respublika tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

J.Subxonov. «Lahzalar».
Respublika Rassomlik kolleji o'quvchisi.

M.Mixaylova. «Bahor».
Respublika tasviriy va amaliy
san'at litsey-internati o'quvchisi.

A.Karimov. «Qush uyasi».
Respublika tasviriy va amaliy san'at
litsey-internati o'quvchisi.

N.Latipov. «Onajonim non yopmoqda».
Respublika tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

F.Nuritdinov. «Manzara».
Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi.

U.Rajabov. «Bolalik». Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi.

O.Islomov. «To'y bola».
Respublika tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

A.Ivashkin. «Oltin mezon». Toshkent.

O.Baxriddinov. «Xayolli dunyo». Samarqand viloyat tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

V.Aminjonov. «Xayol» va «Hijron», Qo'qon.

Qodirjon Haydarov nomidagi tasviriy va amaliy san'at kasb-hunar kolleji o'quvchisi.

A.Gulov. «Ona kiyik».
Buxoro viloyat tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

Z.Sulaymonova. «To'y».
K.Bexzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti talabasi.

K.Subxonova. «Yurtim qo'shig'i».
Respublika tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

J.Abdullayev. «Xo'ja Axror shogirdlar davrasida». Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi.

D.Ismoilov. «Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro». Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi.

G.Qodirova. So'zana «Tobodoni». Navoiy viloyati Nurota tumani X.Xudoyqulov nomidagi ixtisoslashgan gimnaziya o'quvchisi.

Z.Xaqberdiyeva. So'zana «Tobodoni». Navoiy viloyat tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

M.Sodiqov. «Qorakaltak jangi».
Qashqadaryo tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

K.Subxonova.
«Taqdir».
Buxoro tasviriy va amaliy san'at litsey-internati o'quvchisi.

Rassomlarning siru sinoatlari

F.Angel

Tez va mahorat bilan kompozitsiyani joylashtirish zarur. Kompozitsiyani to'g'ri joylashtirgan rassom har qanday murakkab vazifani osonlik bilan hal etadi. Bir maqsad sari yo'naltirilgan ong, minglab turli jihatlarni yengil ochish imkoniyatiga ega. Agar bu yengillik haqqoniyat bilan muvofiqlashib ketsa, ular qondosh bo'lib qoladi, bu esa san'atga nazokat baxshida etadi, ko'plab so'zlar tizmasidan ham chiroyliroq ifodalab beradi. Bu sifat rassom uchun shuning uchun ham kerakki, u o'z asarida ifodalayotgan voqelikni barcha ishqibozlar uchun tushunarli qilib ifodalay olsin.

E.Delakrua

Haqiqiy rassom o'z fikr-o'ylarini ifodalagan chiziqlardanoq uning asaralarini boshqalardan ajratib turadigan jihatlar paydo bo'ladi. Rafael, Rembrandt, Pussen-men bu nomlarni bekorga keltirayotganim yo'q, negaki aynan o'shalar tafakkur qudrati bilan ajralib turadi. Ular qog'ozga tushirgan bir necha chiziqning asarlariga e'tibor qaratilsa, hamma joyida hayot bor, hali to'laligicha ma'lum bo'lmagan mavzuni hal etishda endi boshlangan fikridan chekinmaydi va to'la ochib beradi.

Ammo shunday mahoratli rassomlar borki, ular dastlab yarq etib paydo bo'lgan fikrga to'la va tuban e'tiborni qaratmaydilar, ular uchun tomoshabinning tafakkuriga ta'sir etuvchi tasviriy vosita zarur bo'ladi. Umumiy qoida sifatida ular ko'p narsani tabiatdan oladilar. Model ularga ishonchliroq ishlash uchun zarur bo'ladi. Ularning takomilga eltuvchi yo'li boshqacha.

Darhaqiqat, agar siz Titsian, Murilo yoki Van Deykni jonli tabiatga ergashishdek ne'matdan mahrum qilsangiz, ularning butun mahoratini tortib olgan bo'lasiz, tanlangan syujetda yoki uni ishlashda ko'pincha qiziqishdan mahrum bo'lgan ohangni uchratasiz, ammo rangning maftunkorligi va mo'yqalam sehri tufayli u yashirin ravishda yuqori san'at cho'qqilariga ko'tariladi.

O'zgacha shiralilik, jihatlarning mutanosibligi, havo va yorug'liklarning barchasi, eskizda hali hech narsani ifodalamayotgan mavzuni mo''jizaga aylantirib yuboradi.

K.F.Yuon

Katta hajmdagi asarlarning keng kompozitsiyalari, ularning ayrim lavhalari ham o'rganilishi lozim. Kompozitsiyaning bir planli, ikki planli va ko'p planli, ilmiy perspektivali va shartli perspektivali, shuningdek erkin perspektivasiz kabi barcha tur va ko'rinishlari har bir holatda badiiy maqsadlarga erishtiruvchi o'ziga xos usullarning butun bir turkumini in'om etadi. Bezakli va haqqoniy jihatlar, ruhiy holatlar, imo va ishoralar, harakat va holatlar, qahramonlarni guruhlashtirish va yorug'-soya shartlaridan foydalanish kabilar asosiy kompozitsion materialni tashkil etadi.

A.A.Deyneka

Varaqning markaziy o'qi bo'ylab tasvirlarni to'g'ri joylashtirish, rasmning muvofiqligini ta'minlaydi. Ammo katta varaqdagi kichik tasvir ko'rinmay qoladi, tasvir yuzasiga zo'rg'a sig'dirilgan, varaqning chetiga surilgan yoki yuzadan qisman chiqib ketgan tasvir, kompozitsiyaning muvofiqligini buzadi. O'quv rasmlarida tasvirni joylashtirishning oddiy qoidalari ana shular. Ammo, tasvirning keng qamrovli ekanligini ko'rsatish maqsadida biz katta zal maydonida kichkina tasvirni ishlashimiz mumkin. Oldingi plandagi tasvirni qisman varaq chetiga chiqarish mumkin, arxitektura foni ikkinchi planga o'tadi, xususan plakatda. Harakat qilayotgan odamni varaq chetiga joylashtirish bilan dinamika ko'rsatib beriladi.

E.A.Kibrik

Ijodiy idrok qobiliyati-rassom iqtidori ko'rinishidir. Tahlil qobiliyati, ya'ni o'z ijodini mantiqiy ko'ra olishni tarbiyalash va o'stirish zarur. Mazmundan shaklga bora turib, hissiyot bilan bajarilgan ishni idrok etib rassom personajlarni o'zaro va muhit bilan aloqasini tiklabgina qolmasdan, balki bajarish motivi va hatto vositasini ham belgilab beradi. Faqat hissiyot bilan yaratilgan asarni tahlil qilibgina rassom ijodining tugallikka olib boruvchi yakuniy bosqichiga yo'l va vositalarini topa oladi. Ammo, tugallikka olib boruvchi yo'lni yoritadigan, muallifni bir nafasda hissiyot va aniqlik bilan yakuniga yetkazuvchi kayfiyat ko'tarinkiligi, tahliligina samarali bo'ladi.

Ijod jarayoni taxminan hissiyot-tahlil-hissiyot ko'rinishida bo'ladi. Negaki san'at hissiyot bilan boshlanadi va yakunlanadi, u bilan idrok etiladi. Tahlil orqali tushuntirib beriladi.

Tasviriy va amaliy san'at atamalarining izohli lug'ati

ABR.ABRLI — matoga solingan naqsh (gul), mato tandasini bog'lab rang berish natijasida hosil bo'ladi.

ABRBAND — atlas va shoyining tanda ipiga maxsus usulda gul (naqsh) chizib, bo'yab beruvchi usta.

ABRIS — chegara chiziq.

ABSTRAKT SAN'AT — (lot.abstractus-mavhum so'zidan olingan) abstraktsionizm rangtasvir, haykaltarosh va grafikada aniq, real predmetlar tasviridan voz kechuvchi modernistik oqim. Abstrakt san'at 1910-13 yillarda kubizm, ekspressionizm va futurizmning bo'linib borishi jarayonida vujudga kelgan. Bu yo'nalishda V.V.Kandinskiy, R.Delone, F.Pikabiya, F.Kupka, M.F.Larionov va boshqalar ijod qilishgan.

AVANGARDIZM — (fr.avant-gardisme-avant-garde-ilg'or otryad so'zidan olingan) XX asr rassomlarining qiziqishlarini birlashtiruvchi badiiy harakatning shartli nomlanishidir. Avangard rassomlar an'anaviy bo'lgan yo'nalishlar va uslublarni tanqid qilgan holda, san'atni mazmun va shakl jihatidan tubdan yangilashga intiladilar.

AVRA (ABRA) — kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak va shu kabi narsalarning sirtqi tarafi.

AVTOLITOGRAFIYA — Rassom o'z asarini toshbosma usulida ishlashi.

AVTOGRAVYURA — (yunoncha autos-o'zim va gravyura so'zidan olingan) Rassom o'zi bajargan gravyura.

AVTOPORTRET — Rassomning o'zi tarafdan bajargan portreti (bir yoki bir necha oynalar yordamida ishlanadi).

ADIP, MAG'IZ — to'n, paranji, chopon va shu kabi kiyimlarning oldi va etagiga ichidan qo'yilib tikilgan (5-6 sm) matodan kesib olingan tasma. Qora satin yoki shoyining chetidan qiya yoki uzunasiga qilib kesib olinib, ko'rpa-ko'rpacha va h.k.larning chetlariga bir-biriga ulab tikiladi.

ADRAS — tandasi ipakdan, arqog'i ipdan to'qilgan, abr gulli mato.

ADRASBOF — adras to'quvchi.

AYRI XAROSH — kulollikda sopol idishlarga o'yib naqsh solish uchun ishlatiladigan asbob.

AKADEMIZM — (fr.academisme so'zidan olingan) XVI-XIX asr Badiiy akademiyalarida vujudga kelgan va mumtoz san'atning tashqi formalariga qat'iy ergashishga asoslangan yo'nalish. Akademizm badiiy ta'limotni tizimga solib, mumtoz an'analarni mustahkamlashga yordam beradi.

AKVAREL — (fr.aquarelle, ital.aquerello, lot.aqua-suv so'zidan olingan). Suv bo'yoq (odatda o'simlik yelimidan tayyorlanadi).

AKVATINTA — (ital.acquatinta, actuaforte-ofort va tinto-bo'yalgan, rang berilgan so'zidan olingan) Gravyuraning bir turi.

ALVONCHAK — to'qimachilik dastgohining bir qismi.

ALLA PRIMA — (ital.alla hrima) moybo'yoqda ishlangan rangtasvir texnikasi. Bunda asar juda tez, bir seans ichida, bo'yoqlar quriguniga qadar ishlanadi.

ALLEGORIYA — (yunon.allegoria-shama, istiora so'zidan olingan) mavhum, o'ylab chiqarilgan g'oya, fikrning san'atda aniq obraz orqali ko'rsatilishi. M-n: kabutar ushlagan figura-tinchlik allegoriya si, qo'lida tarozi ushlagan va ko'zlari bog'langan ayol figurasi-odil sud allegoriyasi va h.k.

ALOCHA — yo'l-yo'l mato. Buxoroda tandasi ipakdan, arqog'i ipdan, boshqa joylarda ipdan to'qilgan.

ALFRESKO — devoriy rasm ishlash usullaridan bir turi (bu usul devoriy rasmni ohak zamin qurimasidan, namligida ishlashni talab qiladi).

AMIRKON — oshlangan teri yuzasiga qora lok surtib tayyorlangan charm turi.

AMPIR imperiya uslubi demakdir. Napoleon davrida tasviriy san'at va hunarmandchilikda hukm surgan badiiy uslub.

ANGOB sopol ustiga surtiladigan pardoz bo'yog'i, ko'pincha qizil kesakdan tayyorlanadi.

ANDAVA suvoqchilikda qo'llaniladigan tekislash asbobi. Asosan temirdan (ba'zida yog'ochdan) yasaladi.

ANORGUL anor ko'rinishidagi naqsh turi. Ko'pincha kulolchilik, kashtado'zlik, naqqoshlikda ishlatiladi.

ANIMALISTIK JANR (lot.anima-hayvon, jonivor so'zidan olingan) hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.

ANSAMBL binolarning badiiy shakl va uslub jihatidan bir-biriga uyg'un ko'rinishi. M-n: bir usulda tikilgan kiyim-kechak, badiiy uslub jihatidan bir-biriga o'xshash mebel va h.k.

ANTIK SAN'AT qadimgi degan ma'noni bildiradi. Taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.

ARABCHA NAQSH arabiy naqsh. Ovro'poda jimjimador naqshni shunday deyishgan.

ARXITEKTONIKA mutanosiblik.

ARRA GUL arrasimon ko'rinishdagi naqsh. ko'pincha g'ijduvonlik kulollar tomonidan ko'p ishlatiladi.

ASFALT rang turi.

ATLANT osmon gumbazini elkasida ko'tarib turuvchi qadimgi yunon afsonaviy pahlavoni.

ATRIBUTSIYA asarning kim, qachon, qayerda yaratilganligi va boshqa belgilarini aniqlash.

AXTA I qog'ozga chizilgan naqshning chiziq yo'llari igna yordamida teshib, kashtachilik, o'ymakorlik, naqqoshlik, ganchkorlikda va shu kabi xalq amaliy san'ati turlarida naqshni yuzaga ko'chirishda ishlatiladi.

AXTA II Xitoy qog'ozi.

A SEKKO (ital. a secco-«quruq ustidan» so'zidan olingan) devoriy surat ko'rinishining bir turi. Bu ko'rinishdagi devoriy surat qurigan suvoq ustiga o'simlik elimi, tuxumda ezilgan, yoki ohak aralashtirilgan bo'yoqlar bilan ishlangan.

ATLAS arqog'i ham, tandasi ham tabiiy ipakdan to'qilgan mato. Abrbandi usulida rang-barang naqshlar beriladi. Atlas naqshi, ranglariga ko'ra turli xil nomlarga ega.

ASOSIY RANG tabiatda uchraydigan sariq, qizil, ko'k ranglar. Shu ranglarning bir-biriga qo'shilishi natijasida boshqa ranglar hosil bo'ladi.

ARG'UVON yumshoq yog'ochlilardan hisoblangan jo'ka (lipa) yog'ochidir. Bu yog'ochga asosan bog'dodi uslubida o'yiladigan naqshlar ishlatiladi.

BARBIZONLIKLAR Frantsiyadagi Fontenblo yonida joylashgan Barbizon qishlog'i nomi bilan atalgan bir guruh rassomlar. Bu guruhga T.Russo, J.Dyupre, Diaz, K.Troyon, Sh.F.Dobini va boshqa rassomlar kiradi. XIX asrning 30-60 yillarida bu guruh rassomlar ijodi o'sha davrda hukm surgan rasmiy akademizm san'atidan farqli o'laroq, XVII asr Gollandiya manzarasi janri an'analariga suyangan holda, o'z asarlarida tabiat manzaralarini sodda, lirik, bejirim ko'rinishlarda ifoda etgan.

BARELEF bo'rtma tasvir.

BADIIYLIK borliqni, inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o'zaro o'xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

BADIIY KO'RGAZMA badiiy asarlar namoyishi, ko'rsatuvi.

BADIIY USLUB san'atda qo'llaniladigan usul.

BAZKUR kashta bezagi (uzunligi13-15 sm, eni 30-40 sm) mato hoshiyasiga tikiladi.

BALIQ SIRTI ISKANA tig'ining uchi baliq sirtiga o'xshash iskana. Yog'och o'ymakorligi asbobi.

BANDI RUMI bir bandlik o'simlik ko'rinishlaridan olingan naqsh turi.

BANORAS ingichka qora chiziqlar o'tgan kumush rangdagi qalin mato. Tandasi ip qo'shilgan ipakdan, arqog'i ipdan.

BARGAK 1. Taqinchoq turi. Ayollar peshonasiga taqiladi. Tilla va kumushdan yasaladi. 2. Anjomsozlikda o'mildiriqqa bezak sifatida yopishtiriladigan metall turi.

BATIK gul solish uslubi va shu uslubda tayyorlangan ko'p rangli mato. Matodagi gul yupqa qavatli mum bilan qoplanib bo'yoqqa botiriladi. Natijada matoning mum bilan qoplanmagan joylari bo'yaladi. Batik uslubi qadimdan Indoneziya, Hindiston, Afrika xalqlari orasida ma'lumdir.

BAG'DODI badiiy yog'och o'ymakorligi usullaridan biri. 1. Eshik, sandiqlarni bezashda ishlatiladi. 2. Geometrik (girix) shakllardan tuzilgan naqsh turi. 3. Eshik turi.

BIENNALE ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma.

BIDERMEYER badiiy oqim, XIX asrning 40-60 yillari Germaniya, Avstriya va qisman Rossiya, Gretsiyada tarqalgan. Bu oqimning nemis klassitsizmidan farqi shuki, unda xalq hayotidan olingan lavha va tasvirlarga e'tibor berilgan.

BISKVIT sirlanmagan chinni va undan ishlangan buyum, haykalchalar va h.k.

BIRINJ bronza, mis, qalay, qo'rg'oshin qotishmasi.

BISTR (fr.bistre) yog'och qurumi va suvda eruvchan o'simlik yelimi aralashmasidan tayyorlangan tiniq jigarrang bo'yoq. XV-XVIII asrlarda Yevropa rassomlari tomonidan keng qo'llanilgan.

BODIYA tagi yumaloq, baland tik qirg'oqli, chuqur sopol idish. Bunday idish turlari Xorazm uchun xosdir.

BODOMOY Xorazmga xos bo'lgan taqinchoq turi. To'liq to'plam (kam uchraydi) 3 ta taqinchoqdan tashkil topgan.

BODOMCHA 1. Kulolchilik va xalq amaliy san'atining boshqa ko'rinishlarida keng tarqalgan naqsh turi. 2. Chetlari qalin, sopol idish shaklining nomi.

BOZBAND turli xil uchburchak, to'rtburchak, tsilindr shakllaridagi ayollar bezagi, taqinchog'i. Bozbandning turli xil ko'rinishlari bo'lib, ular tumor ham deyiladi: bo'yin tumor, ko'krak tumor, qo'ltiq tumor. Bu zargarlik buyumining ko'rinishi qutichasimon bo'lib, sirti qimmatbaho toshlar, shisha, munchoqlar va naqshlar bilan bezatiladi.

BOZU turli ko'rinishdagi tokchalar orasidagi sinch.

BOLDOQ 1. Oysimon shaklli zirak. 2. Ko'zsiz silliq uzuk.

BOYQUSH sopol idish ichiga chizilgan naqsh.

BOSMA 1. Kulolchilikda sopol idishlarni bezash uslubi. 2. Kashtachilikning *asosiy gulchoklaridan biri.*

BOSMA QOLIP matoga naqsh tushirishda qo'llaniladi. To'qima, to'qilgan shakldagi naqsh bo'lagi.

BOPTA GULLIK ISLIMI o'simlik unsurlaridan tuzilgan dona gullik naqshlarning bir turi.

BUZI oshlangan echki terisi.

BULBUL KO'ZI urgutning tasma, jiyaklaridagi naqsh ko'rinishi.

BULOQI zeb-ziynat turi. Burunga taqiladigan sirg'a.

BULUT NAQSH kulollikda qo'llaniladigan bulutsimon ko'rinishdagi naqsh.

BULG'ORI oyoq kiyimning usti uchun ishlatiladigan ho'kiz terisidan tayyorlangan charm turi.

BUKLET taxlam nashr, rassom, haykaltarosh ishlari, ko'rgazma yoki biror badiiy asarning qisqacha tafsiloti, bu yaxlit bir varaq qog'oz bo'lib, bir necha marta taxlangan holatda bo'ladi.

BUCHARDA tosh taroshlash asbobi.

BUTADOR buta shaklidagi naqsh.

BUTUNTIRNOQ Xorazmda keng tarqalgan ayollar taqinchog'i.

BO'YOQ rassomlar va ayrim shaxslar tomonidan rangtasvir asarlari yaratishda va badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan maxsus qorishma.

BO'TA bronza eritish uchun olovga chidamli bo'lgan loydan qilingan qozoncha shaklidagi idish.

BO'Z paxta tolasidan to'qilgan qalin va qo'polroq mato.

BYUST (fr.buste, lot.bustum-krematsiya qilish joyi, qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik) yumaloq haykaltaroshlikda ko'krak qismigacha bo'lgan inson tasviri.

VATMAN rassomlik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliy nav qog'oz.

VAN DEYK jigarrang-uni ixtiro etgan mashhur rassom Van Deyk nomiga mansub.

VALYOR rang tusi, rang ohangi degan ma'nolarni bildiradi.

VERNISAJ (fr.Vernissage-lak bilan qoplamoq) maxsus taklif qilinganlar (rassomlar, san'at va madaniyat arboblari va boshq.) oldida badiiy ko'rgazmaning tantanali ochilishi marosimi. Bu nom frantsuz rassomlarining ko'rgazma ochilishi arafasida o'z asarlarini lok bilan qoplashlari natijasida kelib chiqqan.

VINETKA naqshin hoshiya, bezak, naqsh.

VITRAJ rangli shishadan ishlangan tasvir, qashqar oyna desa ham bo'ladi.

VITRINA kitoblar, eksponatlar, turli buyumlarning namunalari qo'yilgan oynavand javon, deraza va har xil oynavand qutilar.

GAVARSA zargarlikda qo'llaniladigan uslub. Zargarlik buyumlarining donador-donador qilib bezatilishi.

GAJAK 1. Ayollar bezagi, taqinchog'i. chakkaga, quloq yoniga taqiladi. 2. Gajaksimon naqsh turi.

GAZCHO'P 1. Ganchkorlik yoki suvoqchilikda ishlatiladigan maxsus yog'och asbob. Devor sirtini tekislash, eshik va deraza qirralarini chiqarishda qo'llaniladi. 2. O'lchov asbobi.

GALEREYA tasviriy va amaliy san'at asarlari saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan maxsus bino. Ma'lum asarlar turkumi ham tushuniladi. M-n: portret galereyasi.

GANCH alebastrning bir turi. Gips va tuproqdan tashkil topgan qattiq jinsni olovda qizdirish yo'li bilan hosil qilinadigan qurilish materiali.

GANCHKOP, GANCHKO'B ganch tayyorlaydigan usta.

GANCHKORLIK amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi. Ganchkor usta kasbi.

GANCHXOK me'morlikda qo'llaniladigan soz tuproq, qum va ganchning suv bilan aralashishi natijasida hosil bo'lgan qorishma.

G'isht terishda va devorga qora suvoq sifatida foydalaniladi.

GAH asl ma'danlarni har xil aralashmalardan tozalaydigan joy. Ichi maxsus qorishma bilan ishlov berilgan, yerga qazilgan chuqurcha.

GAHBAND asl metallarni aralashmalardan tozalaydigan usta.

GEJA zargarlikda qo'llaniladigan chuqurchalik uzunchoq shakldagi metall plastinka. Zargarlar undan Metallni eritib, uzunchoq bo'lak olishda foydalanishgan.

GEMMA (lot.Gemma) o'yma yoki bo'rtma tasvirli qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho tosh. Qadimda muhr, tamg'a sifatida, hozirgi kunda asosan uzuk, to'g'nog'ich sifatida qo'llaniladi.

GERMA qadimgi yunon xudolaridan biri Germes nomidan olingan, byust tasviri yoki byust shaklida o'rnatilgan qabr toshi.

GILAM jun, ipak, ipdan va sun'iy tolalardan to'qilgan to'shama. Uning 2 xil turi mavjud: patli va patsiz.

GILKOR suvoqchi usta: ular qorishma tayyorlash, g'isht (tosh) terish, suvash, naqsh ishlari bilan ham shug'ullanadilar.

GILVATA o'tga chidamli loy, bentonet, kulollikda gilvatalash uchun qo'llaniladi.

GILVATALASH kulollik buyumlariga angob berish jarayoni.

GLIPTIKA (yunon.Glyptike, glypho-o'ymoq, kesmoq) qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni o'yish san'ati. Amaliy bezak san'atining bir turi.

GOBELEN suratli to'qilgan osma gilamcha yoki mato.

«GOLUBAYA ROZA» «Zangori atirgul» nomidagi rassomlar guruhi. Ular o'z ijodlarida Sharq mavzulariga qiziqishgan. 1907 yilda tashkil topgan.

GOHUA Xitoy milliy an'anaviy rangtasvir uslubi, tasviriy san'atning hamma turlarida qo'llanilgan.

GIPS ganch, oq yoki sarg'ish rangli suvda kam eriydigan qurilish materiali. Haykaltaroshlik, o'ymakorlik va bo'yoq tayyorlashda ishlatiladi.

GIPERREALIZM (ing.hyperrealism) fotorealizm, 1960 yillar oxiridagi G'arbiy Yevropa va Amerika san'ati yo'nalishlaridan biri. Bu yo'nalish vakillari fotografiyadagi obrazlar imitatsiyasi orqali modernizm yo'qolib ketgan hayotiylikni tiklashga urinadilar. Bu yo'nalishda ijod etgan rassomlar: Chak Klouz, Don Eddi va h.k.

GIRDOB aylana naqsh ko'rinishi: turli xil naqsh element laridan tuzilishi mumkin.

GIRIH geometrik shakllardan tuzilgan murakkab naqsh turi.

GIRA, GIRO zargar, temirchi va umuman metall bilan ishlovchi ustalar asbobi.

GOVZERI, GOVDERI tabiiy oshlash bilan ishlov berilgan teri (tuya, ho'kiz, qo'tos terilari).

GORELEF (frants.haut-relief, haut-baland, relief-relef, bo'rtma, qavariq) haykaltaroshlik turi. Gorelef da tasvir yuzaga nisbatan bo'rttirib ishlanadi.

GRATTAJ (frants.grattage, gratter-qirmoq) tush bilan qoplangan qog'oz yoki kartonni uchli asbob yordamida qirib, chizmatasvir ishlash uslubi. Grattaj uslubida ishlangan asarlar o'zining qora fon va tasvirdagi oq chiziqlarning kontrastligi bilan ajralib turadi.

GRAFIKA (yunon.graphike, grapho-yozaman, chizaman so'zidan olingan) o'zida chizmatasvir va bosma uslubda ishlangan asarlarni mujassam etgan tasviriy san'at ko'rinishi.

GRIFON Qadimgi Sharq san'atida uchraydigan tanasi arslon, boshi va qanoti burgutsimon afsonaviy maxluq tasviri.

GRUNTOVKA tasvir zaminini tayyorlash.

GROTESK (frants.gratesque, ital.grottesco-g'aroyib, g'alati) 1. O'simlik, jonivor va insonlarning afsonaviy tasvirlari ko'rinishidagi naqsh. 2. Adabiyot, san'at va teatrda insonlar va narsalarning fantastik tarzda qing'ir-qiyshiq qilib kulgili tarzda yaratilgan tasvirlari. 3. Bosmaxona harflarning bir turi.

GUASH (frants.gouach, ital.guazzo-suv bo'yoq) tarkibida suv, yelim bog'lovchisi bo'lgan ezilgan pigment (gummiarabik, bug'doy kraxmali, dekstrin va b.sh.) va belila aralashmasidan iborat bo'lgan suv bilan ishlanadigan bo'yoqlar. Amaliy bezak san'ati va rangtasvirda keng qo'llaniladi.

GUL naqsh, xalq san'atining barcha ko'rinishlarida qo'llaniladigan islimiy naqsh bo'lagi.

GULBUR zardo'zlikda naqsh asosida axta tayyorlovchi usta.

GULIBIBISHAK ayollarning manglayiga taqiladigan gulga o'xshash taqinchoq.

GULI TOVUS kulolchilikda keng tarqalgan naqsh ko'rinishi.

GULI CHEKMA kandakorlikda (chekanka) qo'llaniladigan nuqtasimon naqsh.

GULI SERAFTOR uch yo'nalishli ruta islimiy naqsh. Naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi kabi xalq amaliy san'ati turlarida keng qo'llaniladi.

GULI SHASHBARG islimiy (o'simliksimon) naqsh turlaridan biri.

GULI QUYOSH xalq amaliy san'atida qo'llaniladigan, uslublashtirilgan kungaboqar guli ko'rinishidagi naqsh turi.

GULGANC oliy navli ganch. Juda nozik ishlarda-badiiy o'yma, quyma va mayin suvoq ishlarida qo'llaniladi.

GULQALAM 1. Naqqoshlikda-naqshlarni chizishda ishlatiladigan yumshoq mo'yqalam turi. Gulqalam olmaxon, suvsar, bo'rsiq singari hayvonlarning yungidan tayyorlangan bo'lib, qo'llanilishiga qarab 3 turga bo'linadi: mola qalam; obi qalam; siyoh qalam. 2. Pichoqchilikda ishlatiladigan bigizsimon asbob.

DADAIZM (frants.dadaisme, dada-toychoq, ko'chma ma'noda bolalar) 1016-22 yillardagi modernistik oqim.

DAANGADUZI, TANGATUZI kumush tangalardan yasalib, do'ppi gardishiga biriktirilgan Xorazmga xos bo'lgan ayollar taqinchog'i.

DASTPONA bilaguzuk.

DASTSHO'Y metall yoki sopoldan yasalgan qo'l yuvishda foydadalaniladigan idish.

DASTGOHLI SAN'AT tasviriy san'atning bir turi. Bo'lajak san'at asarlari maxsus dastgohlarga o'rnatilib ishlanganligi uchun shunday deb nomlangan.

DESYUDEPORT (fr.dessus de porte-eshik tepasi, usti) eshik tepasida joylashgan panno (odatda rangtasvir yoki haykaltaroshlik ko'rinishida bo'ladi).

DEVORIY RANGTASVIR katta o'lchamda devorlarga ishlanadigan tasvirlar

DEKADENTLIK XIX asr oxirida rivojlangan akademizm va ijtimoiylik kasb etgan realizmga nisbatan badiiy va ifodali vositalarda asarni yuksak mahorat bilan yaratilganiga ahamiyat bergan badiiy yo'nalish.

DETALLASHTIRISH batafsil, ikir-chikirlarini ishlash.

DIORAMA (yunon.dia-orqali va horama-ko'rinish, manzara so'zidan olingan) 1. Rangtasvir turi. Bunda tasvir nur o'tkazadigan material (nafis mato, xira oyna va h.k.) sirtiga chiziladi. 2. Fonda asosiy tasvir chizilib, old tomonda butaforiya jihozlari (inson qomati va turli xil maketlar) qo'yilgan katta, mahobatli rangtasvir turi. Diorama panoramadan ufqning bir qismi aks ettirilganligi bilan farqlanadi.

DIPTIX (yunon.diptychos-ikkitalik, ikkiga taxlangan) 1. Rangtasvir yoki bo'rtma tasvirli, ikki tabaqali bukilma. 2. Umumiy bir g'oya bilan bog'langan ikkita kartina.

DIZAYN kundalik hayot, maishiy turmushda ishlatiladigan jihozlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq, mebel va shunga o'xshash narsalarni qulay holda chiroyli shakl beradigan rangni yaratish san'ati.

DUOSTARA qalin qavatli kumush ustiga yupqa qilib kavsharlangan, tilladan iborat zargarlik buyumi.

DO'G'OB GANJ ganchkorlikda ishlatiladigan qorishma, ganch turi.

YELPIG'ICH Toshkentlik kandakor va yog'och o'ymakor ustalari qo'llaydigan naqsh turi.

YONDUZI, YONTUZI Xorazmga xos bo'lgan zargarlik buyumi.

JANR san'at asari turi. Ba'zida hayot lavhalarini tasvirlovchi asar deb ataladi.

JANGNOMA urush va harbiy mavzularni ifodalovchi tasviriy san'at asarlari.

JEVAK bo'yinga taqiladigan ayollar taqinchog'i. Odatda tilla va kumushdan yasaladi.

JEZ mis va rux qotishmasidan iborat metall turi.

ZAMIN kashtachilik, naqqoshlik, o'ymakorlik va kandakorlikdagi naqsh bezagining foni, ya'ni gulidan tashqari tag qismi.

ZARBOF zardan yoki zar ip qo'shib to'qilgan mato.

ZARDO'ZLIK liboslarga zar iplar bilan bezak tikish hunari.

ZEBIGARDON bo'yinga taqiladigan ayollar taqinchog'i.

IBRIQ Xorazmga xos bo'lgan, suv solish uchun ishlatiladigan sopol ko'za.

IKONA (yunon.eikon-tasvir, qiyofa) Xristian dinida (pravoslav va katolitsizm) Iso payg'ambar, Bibi Maryam, avliyolar, Muqaddas yozuv sahnalarining tasvirlanishi.

IKONOGRAFIYA tasvir, rasm haqida sharh yoki ma'lum shaxs, hodisa, voqea, mavzu tasvirlarini ko'rsatuvchi izoh va ularni muttasil ravishda o'rganish.

ILLYUSTRATSIYA (lot. illustratio-yoritaman, aniq tasvir) biror-bir tekstni to'ldirib boruvchi, yorituvchi, mazmunini tushunishda yordam beruvchi tasvir (chizmatasvir, gravyura, fotosurat, reproduksiya va h.k.). Badiiy va ilmiy asarlarning tasviriy izohi, talqini.

IMPRESSIONIZM «Impression»-taassurot, hayot so'zidan olingan. XIX asrning 70-yillarida Frantsiya tasviriy san'atida paydo bo'lgan. Bu oqimga mansub Mone, Sisley, Pisarro, Renuar kabi rassomlar o'zlarining tabiat va hayotdan olgan shaxsiy taassurotlarini ifoda etuvchi asarlar yaratib, shu yo'nalishga asos solishgan.

INKRUSTATSIYA (lot. Icrusto - qatlam bilan, marmar bilan qoplayman) buyum va binolardagi tasvir va naqshlarni metall, yog'och, sopol, sadaf, marmar va h.k. bo'lakchalari bilan qoplash usuli.

ISLIMI o'simliksimon elementlardan tuzilgan naqsh turi.

ISFARAK, ISPARAK alyumin ishqori yordamida sariq rangga bo'yovchi o'simlik.

KALYOBATUN 1. Zardo'zlikda ishlatiladigan zar va kumush iplar. 2. Zardo'zlikda keng tarqalgan chok turi.

KALITBOG'I Xorazmga xos bo'lgan ayollar taqinchog'i. Belda osib yuriladi.

KANDAKOR metallga o'yib naqsh ishlaydigan usta.

KARIKATURA hajviy tasvir.

KARTON qog'oz turi, rangtasvir asarining qoralamasi, qalam yoki ko'mir qalamda ishlangan nusxasi.

KATALOG asarlar va mualliflar to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan kitobcha.

KIGIZ, NAMAT qo'y yoki echki junidan tayyorlangan to'shama, palos.

KITOBA bezak kompozitsiyasi ichida qo'llaniladigan chiroyli yozuv.

KLASSIK mumtoz, birinchi darajali, namunali, qadimgi Yunonistonning miloddan avvalgi 5-4 asr san'ati. U dunyo san'ati tarixida eng yuksak va namunaviy hisoblanar edi.

KLASSITSIZM qadimgi Yunon va Rim san'atining an'analari va talablaridan foydalanib rivoj topgan badiiy yo'nalish. Bu badiiy yo'nalish XVIII asrda taraqqiy etgan.

KLASSIK SAN'AT mumtoz san'at.

KOLLAJ (fr. Collage-yopishtirmoq) san'atda biror- bir asosga undan rangi va tuzilishi bilan farq qiluvchi materiallarni yopishtirish usuli. Kollaj asosan grafikada keng qo'llaniladi.

KOLLEKTSIYA (lot. Collektio-to'plam, yig'moq) biror bir buyumlar yoki san'at asarlarini (kartinalar, kitoblar, tangalar va h.k.) to'plash.

KONTRTITUL kitob bezagining turi, sarlavhadan oldin keladigan kitob varag'ining nomi.

KONSERVATSIYA (lot. conservatio-saqlash) tarixiy va madaniy yodgorliklarning (me'moriy obidalar, tasviriy san'at asarlari, qo'lyozmalar va h.k.) tashqi qiyofasi, mustahkamligini uzoq saqlash choralarining majmui. Konservatsiya restavratsiya bilan uzviy bog'liqdir.

KOROPLASTIKA (yunon. koche-qiz, qo'g'irchoq va plastike - haykaltaroshlik so'zidan olingan) pishiq loy, mum, gips va boshqa materiallardan ayol figurachalarini yasash.

KSILOGRAFIYA (yunon. xylon-daraxt va grapho-yozaman, chizaman so'zidan olingan) yog'ochdan ishlangan gravyura, gravyuraning bir turi.

KUBIZM (fr.Cubisme, cube-kub so'zidan olingan) XXasr 1 choragi Yevropa tasviriy san'atidagi modernistik oqim. Asar kompozitsiyasi va obrazning geometrik ko'rinishdagi soddalashuvi. Bu yo'nalishda Pikasso, Arxipenko, Brak, Leje va b.sh. ijod etishgan.

KUNDAL 1. Naqshlarni tilla bilan yupqa qilib qoplab chiqish usuli. 2. Zar ip qo'shib to'qilgan shoyi mato. 3. Misgarlikda bo'rtma naqsh ko'rinishi.

KO'RGAZMA badiiy asarlarni namoyish etish.

KO'CHMA KO'RGAZMA bir joydan boshqa joyga yoki shaharma-shahar ko'chirilib, ochilgan ko'rgazma. Sayyor badiiy ko'rgazmalar shirkati tashkil etgan ko'rgazmalardan hosil bo'lgan atama.

LESSIROVKA sayqallash, pardozlash uchun tayyorlangan taglik.

LINOGRAVYURA linoleum yoki shunga o'xshash materiallarga ishlangan bo'rtma gravyura.

MAVJ to'lqinsimon bezak turi.

MAKET narsa yoki san'at asarining kichraytirib ishlangan nusxasi.

MAHOBATLI SAN'AT tarixiy shaxs, voqealarga bag'ishlangan yodgorliklar, binolarni bezatuvchi haykaltaroshlik va rangtasvir asari.

MARINA (fr.marine, ital.marina, lot.marinus -dengiz so'zidan olingan) dengiz ko'rinishini tasvirlovchi kartina, manzara turi.

MASTIXIN (ital.mestichino) po'latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina. Rangtasvir ishlashda qo'llaniladi.

MODERNIZM (fr.modernisme-zamonaviy so'zidan olingan) XX asr san'atidagi badiiy oqimlarning umumiy nomlanishi.

MONOTIPIYA (yunon.monos-bir va typos-iz) bosma grafika turi. Monotipiya texnikasida bosma qolip sirti qo'lda bo'yalib, so'ng qog'ozga bosiladi.

MONOXROMIYA (yunon.monos-bir va chroma-rang, bir xil ranglilik) birorta rangning bir yoki bir necha tuslarini qo'llashga asoslangan san'at asaridagi koloristik yechim ko'rinishi.

MONUMENT (lot. monumentum, moneo-eslataman) biror bir tarixiy voqea, mashhur jamoat arbobi va boshqalarga bag'ishlangan katta hajmdagi yodgorlik.

MODEL o'lchov, nusxa, qolip.

NAQSH amaliy san'at va me'morlikda keng qo'llaniladigan badiiy bezak. Naqshlar bir necha turga bo'linadi: ramziy, islimiy, girih, hattotiy epigrafik (yozuv ko'rinishida).

NATURA (lot. Natura-tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi ob'ekt (inson, predmetlar, manzara va h.k.)

NEGATIV teskari tasvir ma'nosida.

OLACHIPOR tasvirda ranglarning tartibsiz, palapartish berilishi.

ORIGINAL asli, asl nusxa, asl ko'rinish.

OFORT (fr. Eau-forte - kuchli aroq ya'ni azot kislotasi so'zidan olingan) metallda ishlangan gravyura turi. Ofort ishlashda bosma qoliplar metallni kislota bilan yedirish usulida tayyorlanadi.

OP-ART (ingl. Optikal art-Optik san'at so'zidan olingan) tasviriy san'atdagi avangard oqim. Abstrakt san'atining so'nggi modifikatsiyalaridan biri. Uning kelib chiqishi geometrik abstraktsionizm bilan bog'liq bo'lib, asoschisi V.Vazarelidir.

PALITRA rassom rasm ishlayotgan paytda bo'yoqlarini qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach.

PANORAMA 180 gradusda yoysimon, doira ko'rinishida ishlangan rangtasvir asari. U muhim tarixiy voqealar, jangu-jadallar, shahar va tabiat manzaralari ifodasidir.

PATINIROVKA yangi asarlar va buyumlarni qadimiy ko'rinish holiga keltirish uchun sun'iy yo'l bilan mog'or bostirish yoki ko'kartirish usuli.

PASTEL (ital.Pastello, pasta-xamir so'zidan olingan) Pigmentlar kukuni, kamedlar, sut yoki bo'r, gips va h.k.lardan tayyorlangan quruq, yumshoq rangli qalamlar. Odatda pastel qalamlar bilan g'adir-budir qog'oz, karton, mato, zamsh va pergamentga ishlanadi.

PEYZAJ manzara.

PEREDVIJNIKLAR sayyor rassomlar shirkati. 1870 yilda Rossiyada tashkil topgan. «Sayyor badiiy ko'rgazmalar shirkati» tasviriy san'atda hukm surgan rasmiy akademik san'atga qarshi chiqib, xalq hayotini ifoda etuvchi realistik va sotsial g'oyaviy san'at yaratish, uni omma orasida targ'ib etishni maqsad qilib qo'yganlar.

PIGMENT turli bo'yoqlar kukuni.

PINAKOTEKA (yunon.pinakotheke, pinax-taxta, kartina va theke-narsalar saqlanadigan joy so'zidan olingan) rangtasvir asarlari saqlanadigan joy.

PRIMITIVIZM primitivlik ya'ni soddalashtirish, jo'nlashtirishni ifodalovchi badiiy yo'nalish. Ibtidoiy tasvirlardan, bolalar rasmlariga o'xshatib ishlash yo'li. Ibtidoiy odam nuqtai nazaridan dunyoni idrok etish va uni tasvirlash.

PROTOTIP tasvirga asos bo'lgan ma'lum shaxs qiyofasi tasvirlangan ko'rinish.

PUTTI amur, farishta, Yevropa san'atida yalang'och qanotli go'daklar tasviri bo'lib, ular sevgi va muhabbat ramzi hisoblangan.

PLENER (fr.plein air-ochiq havo) kartinada quyosh yorug'ligi va atrofdagi muhitning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ranglar tuslanishini anglatuvchi termin. Bu turdagi rangtasvir ochiq havoda ishlanadi.

PLAKAT (fr.placard-e'lon, plaquer-yopishtirmoq so'zidan olingan) grafika turi. Reklama va boshqa maqsadlar uchun bajariladigan san'at asari.

PLASTIK ANATOMIYA odam tanasining tuzilishi, shakl-shamoyili, mushaklar ko'rinishi va ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi munosabatini o'rganadigan fan.

PLAFON shipga ishlangan naqshin yoki tasviriy san'at asari.

POLIPTIX (yunon.polyptychos-ko'pgina burma yoki taxtachalardan tashkil topgan so'zidan olingan) 1. Ko'p tabaqali rangtasvir yoki bo'rtmali buklama. 2. G'oyasi, rang va kompozitsion tuzilishi jihatidan umumiy bo'lgan bir necha kartinalar.

POLIXROMIYA (yunon.polusko'p va chroma-rang so'zlaridan olingan) amaliy bezak san'ati, haykaltaroshlik va me'morlik asarlaridagi ko'pranglilik.

PODRAMNIK chorcho'p, rasm ishlanadigan matoni tortib turadigan qurilma.

POLOTNO bo'z matoga ishlangan rangtasvir asari.

POSTAMENT tagtosh, supa tosh, tag kursi ya'ni yodgorlik haykalining tag toshi.

POSTIMPRESSIONIZM impressionizmdan keyingi badiiy oqim. Tasviriy san'atda rivojlangan kubizm, futurizm, ekspressionizm, primitivizm kabi badiiy uslublarni o'z ichiga olgan.

PORTRET (fr.portrait, eskicha portaire-tasvirlash ma'nosini anglatadi) tasviriy san'at janrlaridan biri, bir yoki bir necha odamlar tasviri.

PURIZM (lot.purus-toza ma'nosini anglatadi) 1910-20 yillardagi Frantsiya rangtasviridagi oqim. Asoschilari: rassom A.Ozanfan va me'morlar Sh.E.Jannere, M.Karbyuzi.

RAKURS (fr.raccourci-qisqarish demakdir) tasvirlanuvchi predmetlarning perspektiv qisqarishi.

RAPPORT (fr.rapporter-qaytadan olib kelmoq ma'nosini anglatadi) mato, kashta, gilam, kulollik, mozayka va boshqalarda naqsh gulining takrorlanib kelishi.

RANGLAMA tasviriy san'atda narsalarning bo'yoqlar bilan tez ishlanadigan bir turi.

REALIZM (lot.realis-moddiy, haqiqiy ma'nosini anglatadi) san'atda borliqning haqqoniy, ob'ektiv aks ettirilishi.

REKONSTRUKSIYA qayta qurish, tuzatish, ta'mirlash.

RELEF haykaltaroshlikka xos bo'lgan bo'rtma tasvir. Relef 2 turga bo'linadi: bo'rtma tasvirning yuzaga nisbatan yarmidan ko'p qismi qavargan bo'lsa «gorelef», yarmidan kam qavargani esa «barelef» deb yuritiladi.

RENESSANS Uyg'onish davri.

REPRODUKTSIYA tasviriy san'at asaridan chop etilgan nusxa.

RESTAVRATSIYA ta'mirlash.

RETUSH maxsus qalam.

REPLIKA (lot.replico-qaytaraman so'zidan olingan) muallif tomonidan yoki uning nazorati ostida bajarilgan tasviriy san'at asarining ko'chirma nusxasi (kopiyasi). Replika asl nusxadan hajmi yoki tasvirning alohida detallari bilan ajralib turadi.

REFLEKS (lot.reflexus-orqaga qaytarilgan, aks etgan ma'nosini anglatadi) Refleks tevarak atrofning (predmet, osmon va h.k.) ta'siri, ulardan tushayotgan yorug'lik aksi natijasida hosil bo'ladi. m-n: biror bir predmetga tushayotgan rang va yorug'lik aksi refleks hisoblanadi.

ROMANTIZM XIX asrning 20-30 yillarida Evropa san'atida paydo bo'lgan badiiy yo'nalish. Bu yo'nalishga mansub asarlar syujetlarida his tuyg'ular oshkora va ko'tarinki ruhda ifoda etiladi. m-n: o'z ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan xalqlar tarixidan lavhalar, inqilobiy voqealar, ekzotik mamlakatlar, tabiiy ofatlar va g'aroyibotlar shuningdek, Sharq xalqlari san'ati va madaniyatida afsona, ertak, tarixiy voqealar, sevgi va muhabbat mavzularini ifoda etishda ko'rinadi.

ROKOKO chig'anoq so'zidan olingan bo'lib, chig'anoqsimon, chig'anoqqa o'xshash jimjimador, o'ynoqi degan ma'noni beradi.

SALON aslida mehmonxona ma'nosini anglatadi. XVII-XIX asrlarda Fransiyada Badiiy Akademiya tomonidan uyushtiriladigan ko'rgazmalar nomi, sotishga mo'ljallangan asarlar ko'rgazmasi, ko'rgazma do'koni.

SAN'AT arabcha atama bo'lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi. U tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik, musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot va televidenieni o'z ichiga oladi.

SAN'AT SINTEZI birlashish, qo'shilish, uyg'un ma'nosini anglatadi. Rangtasvir, haykaltaroshlik va amaliy san'at asarlarining me'morchilik bilan uzviy bog'lanishi, uyg'unlashuvi natijasida san'at sintezi hosil bo'ladi.

SANGINA (lot.sanguineus-qonday qip-qizil degan ma'noni anglatadi) qizil-jigarrang tuslardagi qoplamasiz qalamlar. Tabiiy va sun'iy sanginalar kaolin va temir oksididan tashkil topgan.

SGRAFFITO, GRAFFITO (ital. Sgraffito yoki graffito-qirilgan degan ma'noni beradi) mahobatli dekorativ rangtasvir ko'rinishlaridan biri. Bu turdagi rangtasvirda tasvir ustki yupqa suvoq qatlamini maxsus asboblar yordamida to suvoqning tagidagi qatlami ko'ringunga qadar qirish orqali bajariladi. Bunda suvoqning ustki va ostki qatlamlari bir-biriga nisbatan kontrast ranglarda olinadi.

SIMVOL ramziy belgi, timsol.

SOYA narsalarning yorug'lik tushmaydigan qismidagi ko'rinishi.

SOUS yumshoq qalam. Shu qalam yordamida ishlangan asar ham «sous» deyiladi.

STILIZATSIYA uslublashtirish, muqallid, narsalar shakli va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish, badiiylashtirish.

SUPREMATIZM (lot.supremus-eng yuqori degan ma'noni anglatadi) avangardizm san'atidagi yo'nalishlardan birining shartli nomlanishi. Suprematizmga Rossiyada 1910 yilning o'rtalarida K.S.Malevich asos solgan.

SYURREALIZM (fr. Surrealisme-realizmdan yuqori so'zidan olingan) XX asr san'ati va madaniyatidagi avangard yo'nalish.

TANQIDIY REALIZM bu yo'nalish Rossiya adabiyoti va san'atida XIX asrning 40-yillarida taraqqiy etgan va rassom P.Fedotov ijodida shakllangan. So'ng tanqidiy realizm xususiyatlari rus tasviriy san'atining demokratik oqimi «sayyor rassomlar»ning ijodida qo'llanilgan. Bu yo'nalish san'atkordan voqelikka tanqidiy nuqtai nazardan yondoshish va uni idrok etishni talab etadi.

TARIXIY JANR tarixiy voqealarni ifodalovchi tasviriy san'at turi.

TEMPERA (ital. Temperare-bo'yoqlarni aralashtirish ma'nosini anglatadi) tuxum sarig'iga emultsiya, suvda eritilgan o'simlik yoki hayvon yelimi va yog' qo'shib tayyorlangan bo'yoq.

TERRAKOTA (ital. Terra-er, loy va cotta-kuydirilgan so'zidan olingan) pishirilgan qizg'ish-jigarrangli gil va undan yasalgan sirlanmagan buyumlar.

TRIPTIX (yunon. triptychos-uchtalik, uch marta taxlangan ma'nosini anglatadi) bir mavzuga bog'liq bo'lgan uch qismdan iborat san'at asari.

TUS ohang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.

TUSH qora bo'yoq. Ilgari tush ignabargli daraxtlar qurumi, o'simlik yog'i va qatrondan, hozirgi kunda esa gaz va neft mahsulotlarini yondirish natijasida hosil bo'lgan qurumdan tayyorlanadi. Tushning suyuq hamda quruq turlari bor.

UYG'ONISH DAVRI XIV-XV asr Yevropa tasviriy san'ati rivojidagi davr.

FAKTURA rassom ishlaydigan materialning tashqi ko'rinishi, sathi, yuzining yumshoq yoki qattiq, yaltiroqligiga aytiladi.

FAS old ko'rinish, yuz, chehra.

FAYUM PORTRETI qadimgi Misrning Fayum vrhasidagi qabrdan topilgan portret. Eramizning I-III asrlarida diniy urf-odatlarga ko'ra dunyodan o'tgan odam tobutiga qo'yilgan.

FIKSATIV (lot. fixus-mustahkam degani) ko'mir, pastel va h.k.lar bilan chizilgan chizmatasvir sirtiga himoya qoplamasini berishda ishlatiladigan birikma. Efir, spirt yoki benzindagi rangsiz qatron eritmasi.

FLEYTS katta mo'yqalam, cho'tka.

FOVIZM (fr. Fauve-yovvoyi so'zidan olingan) XX asr boshlaridagi frantsuz rangtasvir oqimlaridan biri. Bunday asarlarda shakl va perspektivaga e'tibor berilmaydi. Kartina juda yorqin ranglarda ishlanadi.

FORMALIZM asarning mazmuniga nisbatan shakliga, badiiy va tasviriy vositalariga e'tibor berish.

FRESKA (ital. Fresco-yangi degani) yangi maxsus suvoq ustiga rangtasvir chizish uslubi. Rangtasvir qurigach, sirtida yupqa, rangsiz karbonat kaltsiy qoplamasini hosil qiladi va freskaning uzoq vaqt saqlanishi, bo'yoqlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

FUTURIZM (lot. futurum-kelajak so'zidan olingan) 1910- 20 yillar boshlarida ayrim Yevropa mamlakatlari (eng avvalo Italiya va Rossiyada) san'atida yuzaga kelgan avangardistik oqim. Futuristlar uchun davr-harakatdir, ular «tezlik», «harakat», «dinamizm»ga sig'inganlar. San'atda hamma narsa shartli deb bilishgan. Bu yo'nalishda U.Bochchoni, L.Russalo, K.Karra, J.Saverini va h.k.lar ijod qilishgan.

XOLST rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

CHINKVENCHENTO Italiya uyg'onish davrining yuksak bosqichi. XV asr.

SHAMOT pishirilgan, o'tga chidamli loy yoki kaolin.

SHRIFT yozuv, harf, terma harf.

SHTRIX chiziq, chizgi.

EKSPONAT muzeyda ko'rgazmaga qo'yilgan turli xil buyum, ashyo va san'at asasrlari.

EKSPRESSIONIZM (lot. expressio-ifoda etmoq degan ma'noni bildiradi) XX asr 1-choragida G'arbiy Yevropa san'atida yuzaga kelgan yo'nalish. Bu oqimga 1905 yil Germaniyada «Ko'prik» (Most) nomli guruhi asos solgan. 1-jahon urushidan keyin rus san'atida keng tarqaldi. Ekspressionizm insonning sub'ektiv ma'naviy dunyosini, fikr, kayfiyat va his- tuyg'ularini ifoda etish san'atning asosiy maq sadi deb qaradi.

EKSPRESSIVLIK san'atda ta'sirchanlik, jozibalikni.

EKSPRESSIYA shijoat, shiddat, tezkorlik, ifodalilik, fikr, kayfiyat va his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi.

ELLINIZM yunoncha ellin so'zidan olingan. Miloddan avv. III-I asrda Iskandar Zulqarnayn-Aleksandr Makedonskiy zabt etgan Turon zaminida Ellin madaniyati ta'sirida yuzaga kelgan madaniyat.

ENKAUSTIKA (yunon. enkaio-yondirmoq, kuydirmoq so'zidan olingan) eritilgan bo'yoqlar bilan issiqlik uslubida bajarilgan mumli rangtasvir.

ESTAMP bosma rasm.

ETYUD fr. «o'rganish» degan so'zdan olingan. Bevosita naturadan ishlangan kichik lavha, xomaki rasm.

YARIM SOYA nim soya, narsalarda va tasvirda yorug' bilan soya o'rtasidagi qism.

QO'SHIMCHA RANGLAR ranglarni aralashtirganda hosil bo'ladigan omuxta rang yoki rang tusi, ohangi, to'qligi, ochligi. Qizil, sariq, zangori ranglarni qo'shish orqali olingan ranglar.

HAL buyumlarga jilo berishda ishlatiladigan oltin, kumush, alyuminiy, jez, ruh va shu kabi metallardan tayyorlangan bo'yoq, kukun.

HAYKAL turli qattiq materiallardan tayyorlangan: paykar, sanam, but va h.k.

HAYKALTAROSH tasviriy san'atning haykaltaroshlik turida ijod qiluvchi haykaltarosh rassom.

Adabiyotlar

Avsiyan O.A. «Natura i risovanie po predstavleniyu». - M., 1985.
Alexin A.D. «Izobrazitelnoe iskusstvo». Xudojnik. Pedagog. Shkola. - M., 1984.
Alexin A.D. «O yazike izobrazitelnogo iskusstva». - M., 1973.
Afonkin S.Yu., Afonkina E.Yu. «Uroki igrami v shkole i doma». - M., 1995.
«Bobirnoma rasmlari». Hamid Sulaymon. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi A.Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi. «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1970.
Binavsha Nodir. «Tasviriy va amaliy san'at atamalarining izohli lug'ati». «SAN'AT» nashriyoti, 2001.
Beda G.V. «Osnovi izobrazitelnoy gramoti». - M., 1989.
Volkov N.N. «Vospriyatie kartini». - M., 1976.
Bobojonova G. «Fazoviy san'atlarni his etish». O'quv metodik qo'llanma. - Toshkent, 2005.
Glazichev V.L. «O dizayne». - M., 1970.
Greyner L.K. «Obshie osnovi kompozitsii promishlennix izdeliy». - L., 1970.
Deyneka A.A. «Jivopis, grafika, skulptura, mozaika». - L., 1982.
Ikonnikov A.V., Stepanov G.P. «Osnovi arxitekturnoy kompozitsii». - M., 1971.
Iskusstvo: Jivopis. Skulptura. Arxitektura. Grafika: V 3 ch./ Sost. M.V.Alpatov i dr. - M., 1987-1989.
«Istoriya zarubejnogo iskusstva». Pod red. M.T.Kuzminoy, N.L.Maltsevoy. - M., 1980.
Kameneva E.O. «Kakogo tsveta raduga». - M., 1971.
Kirillo A.A. «Uchitelyu ob izobrazitelnix materialax». - M., 1971.
Kuzin V.S. «Psixologiya». - M., 1982.
Levin S.D. «Besedi s yunim xudojnikom». - M., 1988.
Lyubimov L.D. «Iskusstvo Zapadnoy Yevropi». Srednie veka. «Vozrojdenie v Italii». - M., 1982.
Lyubimov L.D. «Iskusstvo drevnego mira». - M., 1980.
Maslov N.Ya. «Plener». - M., 1984.
«Materiali i texnika risunka». Pod red. V.A.Koroleva. - M., 1984.
«Modernizm». Pod red. V.V.Vanslova. - M., 1980.
Oydinov N. «Rassom - o'qituvchilar tayyorlash muammolari». O'qituvchi, «Ziyonoshir» KShK, 1997.
Nelson Dj. «Problemi dizayna». - M., 1971.
Nesterenko O.I. «Kratkaya entsiklopediya dizayna». - M., 1994.
Nikoronova N.A. «Naglyadnie posobiya i oborudovanie dlya zanyatiy izobrazitelnim iskusstvom». - M., 1975.
«Osnovi metodiki xudojestvennogo konstruirovaniya». - M., 1970.
Ch. 1. Vishivka. «Krujevo». Xudojestvennoe tkachestvo. «Ruchnoe kovrodelie». Xudojestvennaya rospis tkaney. «Kompozitsiya i kolorirovanie tekstilnix xudojestvennix izdeliy». - M., 1986.
Prette M.K. «Tvorchestvo i virajenie». T. 1, 2. - M., 1981 - 1985.
«Risunok». «Jivopis». «Kompozitsiya». Xrestomatiya / Sost. N.N.Rostovtsev, S.E.Ignatev, E.V.Shoroxov. - M., 1989.
Rojkova E.E., Xersonskaya E.A. Risovanie. 5 klass. - M., 1964.
Rojkova E.E., Makoed L.L. «Izobrazitelnoe iskusstvo». 6 klass. - M., 1968.
Rostovtsev N.N. «Metodika prepodavaniya izobrazitelnogo iskusstva v shkole». - M., 1980.
Seleznev I.F. «Dizayn». - Minsk, 1978.
Somov Yu.S. «Kompozitsiya v texnike». - M., 1972.
Qo'ziev T., Egamov A., Qanoatov T., Nurqobilov A. «Rangtasvir». 5-9 sinflar «SAN'AT» jurnali nashriyoti, Toshkent, 2004 yil.
Xolmyanskiy L.M., Shipanov A.S. «Dizayn». - M., 1985.
«Xudojestvennoe proektirovanie». - M., 1979.
Shevelev I.Sh., Marutaev M.A., Shmelev I.R. «Zolotoe sechenie». - M., 1990.
«Shkola izobrazitelnogo iskusstva» v 10 vo'p. - M., 1960-1963.
«Gosudarstvenniy muzey iskusstva narodov vostoka». Izdatelstvo «Izobrazitelnogo iskusstvo». - M., 1978. Avtor - sostovitel O.N.Gluxareva.
«O'zbek xalq amaliy bezak san'ati». Toshkent «Mehnat» 1991. S.Bulatov.
Sokolnikova N.M. «Izobrazitelnoe iskusstvo osnovi kompozitsii». Obninsk. Izdatelstvo «Titul» 1996.
Shoroxov E.V. «Kompozitsiya». - M., 1986.
Yablonskiy V.A. Prepodavanie predmetov «Risunok» i «Osnovo' kompozitsii». - M., 1989.
Yashuxin A.P. «Jivopis». - M., 1985.
«Shkola izobrazitelnogo iskusstva». Vip.2.izd «Iskusstvo», - M., 1965.
«Yuniy xudojnik». Jurnal. 7. - M., 1981.

Mundarija

Kirish ... 3
Kompozitsiya o'quv fanining maqsad va vazifalari ... 3
Kompozitsiyaning makoniy imkoniyat talablari ... 5
Kompozitsiyaning qonun - qoidalari, usul va vositalari ... 25
Ritm, harakat va tinch holatni tasvirlash ... 29
Mavzuli kompozitsiya markaziy qismini alohida tasvirlash ... 35
Kompozitsiyada simmetriya va asimmetriyani qo'llash ... 39
Kompozitsiyada muvozanatlikni ifodalash ... 42
Amaliy maslahatlar ... 45
«Shifrlangan kubiklar» Kompozitsiya o'yini ... 54
Turli ashyolar va tabiat shakllaridan kompozitsiya tuzish ... 56
Dizayn ... 59
Amaliy topshiriqlar ... 63
Sport o'yinlari ... 64
«Zumrad va Qimmat» ertagiga rasm ishlash ... 65
Shahar ritmlari ... 66
Erkin mavzuda ... 67
Folklor bayrami (erkin ranglar) ... 68
Kuy ... 69
Savollar, mashqlar va ijodiy topshiriqlar ... 76
Savollarga javoblar ... 93
Rassomlarning siru sinoatlari ... 107
F.Angel ... 107
E.Delakrua ... 107
K.F.Yuon ... 108
A.A.Deyneka ... 108
E.A.Kibrik ... 108
Tasviriy va amaliy san'at atamalarining izohli lug'ati ... 109
Adabiyotlar ... 131

Darslikning muqovasida J.Subxonovning «Lahzalar» asari.
Darslikning birinchi betida L.Ibragimovning «Bilim bulog'i» asari.

Kompozitsiya asoslari 5-9 sinflar
Nashriyot muharriri **Nodir Normatov**

Bosmaxonaga 07.06.2005-yil topshirildi. Bosishga 20.06.2005-yil ruxsat berildi.
Bichimi 84x108 1/16. Bosma tabog'i 8. Adadi 3000 dona. «Ren poligraf» MCHJ bosmaxonasi.
Manzil: Toshkent shahar, Muqimiy ko'chasi, 178.